




"Metodist" 2025-yil 3-son

ISSN 3060-4664

METODIST

ILMIY-INNOVATSION, METODIK JURNAL

2025-yil, 3-son

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi
tomonidan ro'yxatga olingan.
Guvohnoma №229146

1

"Metodist" 2025-yil 3-son

MUNDARIJA

Husanboyeva Q. O'zbek so'zini dunyoga olib chiqqan shoir ijodiga bir nazar	3
Matjonov S. Boshlang'ich sinflarda badiiy asarni tahlil qilishning metodik asoslari	18
Djanpeisova G., Ortiqova G. Maktabgacha yoshdagi bolalarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirishda didaktik o'yinlar va o'yinchoqlardan foydalanish	32
Djanpeisova G., Maxmudova S. Maktabgacha yoshdagi bolalarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga sensorli ta'limning ta'siri	40
Sagatova D. Adabiy ta'limda Avaz O'tar ijodini o'rganish ("Fidoyi xalqim", "Ona tilim" she'rlari misolida)	48
Sirojiddin Rauf. Aytarimni do'stlarim anglar. She'rlar	57

Mualliflarning fikrlari tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.
Maqolalardagi fikr va mulohazalarning haqqoniyligi va to'g'riligiga
mualliflar mas'uldirlar.

2

"Metodist" 2025-yil 3-son

BOSH MUHARRIR MINBARI

O'ZBEK SO'ZINI DUNYOGA OLIB CHIQQAN SHOIR IJODIGA BIR NAZAR



Qunduzxon HUSANBOYEVA
Pedagogika fanlari doktori, professor.
El. manzil: qunduz56@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada she'rlari dunyoning o'ttizdan ortiq tillariga tarjima
qilingan, asarlari bir necha davlatlarda kitob holida va davriy matbuotda chop
etilgan qirg'izistonlik o'zbek ijodkori Rahim Karim (Karimov) she'riyatidan
namunalar tahlilga tortilgan. Rahim Karim nafaqat shoir, balki nosir va mohir
tarjimon hamdir.

Kalit so'zlar: shoir, nosir, tarjimon, dunyo adibi, xalqaro shoir, akademik,
xalqaro mukofotlar sovrindori.

Annotation. The article analyzes samples of the poetry of the Uzbek artist
Rakhim Karim (Karimov) from Kyrgyzstan, whose poems have been translated into
more than thirty languages, and his works have been published in books and
periodicals in a number of countries. Rahim Karim is not only a poet, but also an
excellent translator.

Key words: poet, prose writer, translator, world writer, international poet,
academician, laureate of international awards.

Аннотация. В статье анализируются образцы поэзии узбекского
художника Рахима Карима (Каримова) из Кыргызстана, стихи которого
переведены более чем на тридцать языков мира, а произведения
опубликованы в книгах и периодических изданиях ряда стран. Рахим Карим не
только поэт, он писатель и прекрасный переводчик.

Ключевые слова: поэт, прозаик, переводчик, мировой писатель, поэт-
международник, академик, лауреат международных премий.

Dunyo miqyosidagi o'nlab xalqaro mukofotlar sovrindori,
o'nlab xalqaro akademiyalarning akademigi, bir qancha davlatlar

3

"Metodist" 2025-yil 3-son

xalqaro tanlovlari g'olibi, oltmishga yaqin she'riy, nasriy, tarjima kitoblar muallifi, qirg'izistonlik o'zbek shoiri Rahim Karim (Karimov) dunyo adabiy olamida o'z so'zi va o'rniga ega bo'lgan xalqaro shoiridir. "Xalqaro shoir" degan ibora, dunyoni bilmadim-u, lekin o'zbek adabiyotida birinchi marotaba qo'llanilmoqda, deb o'ylayman.

Bu atamaga Rahim Karimning olam aro o'ttizdan ortiq mamlakatlarda o'zbek, qirg'iz, rus, tojik, ingliz, ukrain, fransuz, ispan, rumin, hind, urdu, bengal, tamil, malayalam, golland, nemis, polyak, yunon, fors, pushtun, dari, arab, xitoy, yapon, makedon, serb, alban, xorvat, bosniya, chernogoriya, slovak, malay, ozarbayjon, turk, nepal, ivrit, shved, shotland, lezgin, indoneziya, portugal, bolg'ar va assam, turkman tillariga tarjima qilinib alohida to'plam shaklida, nufuzli jurnallar va davriy matbuotda chop etilgan bitiklari, hech shubhasiz, asos bo'la oladi.

Bugungi globallashuv sharoitida dunyo bir qadar torayib qolgan bo'lsa-da, o'z milliy qogib'idan chiqib, asarlari dunyo mamlakatlari tillariga bu qadar ko'p tarjima qilingan shoir yoki yozuvchi barmoq bilan sanarli.

Rahim Karimning o'z yaratiqchlari bilan dunyo kezugani bir taraf. Uning Qirg'iziston, O'zbekiston, Rossiya, Tojikiston, Mo'g'uliston, Ozarbayjon, Qozog'iston, Niderlandiya, Kosovo, Albaniya, Tunis, Saudiya Arabistoni, Ruminiya, Rossiya, Polsha, Makedoniya, Xorvatiya, Bosniya va Gersegovina, Serbiya, Eron, Daniya, AQSH, Slovakiya, Meksika, Malayziya, Iroq, Italiya, Bangladesh, Nepal, Turkiya, Isroil, Filippin kabi davlatlarning shoirlari asarlarini o'zbek, rus, qirg'iz va ingliz tillariga qilgan tarjimalari ham tarjimonning jahon sahnasidagi o'rnini yanada mustahkamlaydi.

Rahimjonning samarali mehnati bilan Boborahim Mashrabni dunyo tanidi. Tarjimon Mashrabning g'azallar to'plamini rus va ingliz tillariga o'girdi. O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripovning ikki jildlik "Men nechun sevaman O'zbekistonni" va "Jannatga yo'l" kitoblari Rahimjonning tarjimasida rus va ingliz tillarida dunyoga chiqdi. "O'zbek karvoni" nomli o'zbek she'riyati antologiyasiga kiritilgan o'ttizza yaqin o'zbek shoirining she'rlari rus va ingliz tillariga tarjima qilinib olam ahliga taqdim etildi.

"Metodist" 2025-yil 3-son

Yana shuni ta'kidlash joizki, Rahimjon Karimov bu yil 28 qismdan iborat "Xitoy afsonalari"ni qirg'iz va qozoq tillariga o'girdi. Dunyo miqyosida 355 nafar tarjimonga o'zi tashkil etgan xalqaro "Oltin yurak" sertifikatini topshirdi. Bu mehnatlar ijodkorni yuqoridagi "Xalqaro shoir" degan nomga qanchalar munosib ekanini yaqqol namoyon etadi.

2023-yilda Rahim Karimning uchta: "Dunyoga yo'l", "Ko'ngil anatomiyasi" va "Umr falsafasi" nomli kitobi nashrdan chiqdi. "Dunyoga yo'l"da shoirning she'rlar, g'azallar va ruboiylari, "Ko'ngil anatomiyasi"da she'rlar, g'azallar va "Go'ro'g'li" nomli dramatik dostoni, "Umr falsafasi"da esa she'rlari, ruboiylari va to'rtliklar jamlangan. Shoirning juda ko'p she'rlarida odamlar orasida yo'qolib borayotgan mehr-oqibat, milliy urf-odatlar, dunyo hamjamiyatidagi xalqaro munosabatlar, Ona, Vatan va unga muhabbat hissi, tabiat tasviri kabi bir qator mavzular yetakchilik qiladi.

Ma'lumki, she'r – tizimga solingan so'z – har bir shoirning ruhiyatidan "to'kiladi". Shoir so'zni ichki "men"ining kechmishtaridan, dard-iztiroblaridan yaratadi. Har kimning she'ri o'z mazmun-mohiyati va uslubi bilan muallifning tabiatini namoyish etadi.

Rahim Karimning odam sifatidagi qarashlari uning "Umr falsafasi" nomli she'rlar to'plamidagi bitiklarida o'z aksini topgan. Saylanmada Ona obrazi alohida o'rinni egallagan. Shoirning "Ona", "Yangi yil muborak bo'lsin, onajon!", "Men yashasam – onam uchun yashadim", "Armon", "Zarifaxon", "O'zvak" singari bir qator she'rlari shular jumlasidandir. Ma'lumki, onalarimiz, garchi bugungi onalar haqida bu sifatlarining hammasini birday aytib bo'lmasa-da, hamisha mungli-mushtipar, mehribon, siniqqina, bolasi uchun har narsaga tayyor fidokor, kamtar va kamsuqum bo'lgan hamda adabiyotda ham shunday tasvirlangan. Rahim Karimning qahramoni ona – "olamni tebratgan alla". Ya'ni barcha onalar singari alla aytib dunyolarni tebratgan. Onalar yig'lab-sixtab dunyoni qutqaradi, urushlarni to'xtatadi, jonini garovga qo'yib farzand tug'adi, farzandini balo-qazolardan asraydi:

"Metodist" 2025-yil 3-son

*Ona yig'lamasa – hech ish bitmaydi,
Ona yig'lamasa – tug'ilmas bola.
Ona yig'lamasa – rahm kelmaydi,
Ona – bu dunyoni qutqarar nola!*

*Ona yig'lamasa – urush to'xtamas,
Ona yig'lamasa – yashamas bola.
Ona yig'lamasa – farzand tuzalmas,
Ona – bu garovga tikilgan jola!*

*Ona yig'lamasa – tug'ilmaydi baxt,
Ona yig'lamasa – qayda toj-u taxt?
Yaratgan, ularni qilmagin bebaxt,
Ona – bu yosh bo'lib to'kilgan shafqat.*

Onalar, ayniqsa, o'zbekning onalari sirtidan mungligina ko'ringanlari bilan ichdan juda qudratli. Shu mungliligi bilan, shu siniqligi bilan oilani boshqaradi. Shu soddaligi bilan buyuk farzandlarni dunyoga keltiradi va tarbiyalaydi. Yig'lab-sixtab bolalarini istagan hamma narsasiga erishtiradi. Ota bilan bolalari orasida vositachi, posangi bo'ladi.

Lekin onalarning shunday yig'isi ham borki, bunday yig'i dunyolarni larzaga soladi. Dunyoni yig'latadi. Demak, onalarning yig'isi qay o'rinda mehr, qay bir joyda qudrat, hayotning qaysidir bosqichida dard-iztirob, ba'zi holatlarda vositachi, qayerlardadir isyon ifodasi bo'ladi:

*Rahming kelsin unga, jonim Allohim,
Kuldiringin ularni, yosh to'kkan palla.
Onalarni asra, yolg'iz Panohim,
Ona – bu olamni tebratgan alla.*

*Onadan mehringni darig' tutmagil,
Ona yig'latmasin jigar-bag'ri xun.
Nima qilsang qilgin, rahmdil Ko'ngil,
Onani yig'latma bolasi uchun!*

"Metodist" 2025-yil 3-son

Onalar yig'ilarining orasida eng iztirobli, eng dardlisi va og'iri – uning bolasi ustida bo'zlashi. Bolasining umri uchun, bolasining sog'lig'i uchun yig'lashi. Shoirning Allohdan eng oliy o'tinchi bor: "Nima qilsang qilgin, rahmdil Ko'ngil, Onani yig'latma bolasi uchun!" Mana shu – haqiqat! Dunyodagi barcha onalarni mana shundan asrasin! Qolganini onalar o'zlari eplab olishadi.

Rahim Karimning she'rlari orasida vatan mavzusiga bag'ishlangan bitiklar ham talaygina. "Mol-dunyoga sotma Vatanni, o'g'lim!", "Vatan", "Odat", "Shoirning vatani", "Vatan, buncha chiroyliyan?", "Vatanga qayting", "Axir, bitta bizlar yashagan vatan" nomli she'rlar shular jumlasidandir. "Vatan" degan so'z nisbiy tushuncha va unga bo'lgan muhabbatni ham har kim har xil tushunadi, o'ziga xos ifodalaydi. Shoir nazarida vatan "o'pkaga kirgan ilk nafas, u ko'zga to'lgan nur, to'mirdagi yugurik qon". Bularning hech birini hech narsaga almashib bo'lmaydi. She'r muallifi vatan va vatanga muhabbat hissini o'zi hamma narsadan ustun qo'yadi va bir ota sifatida farzandlaridan ham shuni talab qiladi: "Mol-dunyoga sotma Vatanni, o'g'lim!" Vatanni o'z g'ururi va sha'ni deb bilgan shoir farzandlarga nasihat qilarkan, vatan ta'rifini quyidagicha ifodalaydi:

*Vatan – bu bosh qo'yib yotgan yostig'ing,
Vatan – ilk tinglagan allang, qo'shig'ing.
Vatan – bu ko'krakdan emgan oq suting,
Mol-dunyoga sotma Vatanni, o'g'lim!*

Ko'rinadiki, vatan, shoir nazdida makon, tuproq yoki sarhadlar bilan chegaralanib qolmaydi. Vatan har qanday inson ruhiyatiga, tanasiga, ongiga ona suti bilan kirgan tuyg'u va u joni bilan chiqadi. Uni sotib ham, sotib olib ham bo'lmaydi. Uni sotish o'zni, o'zlikni yo'q qilish bilan barobar. Uni qo'rg'ash, farzandlarni ham vatanni asrab-avaylashga o'rgatish har bir otaning, har bir insonning fuqarolik, farzandlik burchidir. Rahim Karimning vatan madhiga bag'ishlangan barcha she'rlari zamirida mana shu haqiqat mavjud.

Vatanga bag'ishlangan she'rlaridan yana birida muallif vatanni shunday ta'riflaydi: "Vatanga tik boqma, u – sening onang, Vatanga tosh otma, u – sening otang. Vatan bu jismingga jon bergan otang,

"Metodist" 2025-yil 3-son

Vatan bu qo'lingga non bergan onang. Vatan – bu ortingda qolguvchi bolang". Shoir insonga xos bo'lgan eng muqaddas narsalarni vatan bilan qiyoslaydi. Vatanni madh etishda davom etarkan, shoir yozadi. Vatan:

*Ne-ne bobolaring bobosi erur,
Ne-ne momolaring momosi erur.
Avayla, e'zozla, ko'kragingga bos,
Avlod-ajdodlaring navosi erur.*

*Tuprag'idan sening yasalgan loyding,
Poyini o'psang gar topgayсан qadr.
Ko'hna vataningning duosini ol,
Oyog'ini o'pgin, dargohida qol.*

"Vatanning duosini olish" degan ibora Rahim Karimgagina xos bo'lgan ifoda. Vatanning duosini olish Onaning, Otaning duosini olish bilan barobar. Bu har bir farzandning Ota, Ona va Vatan oldidagi farzandlik burchidir.

Muallif ijodida uning falsafiy qarashlarini aks ettiruvchi bir qator bitiklari mavjud bo'lib, shulardan biri uning "Odat" she'rida o'z ifodasini topgan. Ko'rinadiki, Rahimjonning nazari juda ziyrak. U o'zbeklarga xos bo'lgan urf-odatlarini, afsuski, bugungi kunda yo'qolib borayotgan udumlarni mazmun-mohiyati bilan anglaydi va qadrlaydi. Duolarida, tilaklarida buni saqlab qolishga undaydi:

*O'zbekda bir odat bor,
Osh suzilgach tovoqqa,
Qo'l cho'zmas kichik beor,
Kelguncha cho'ng yemoqqa.*

O'zbeklarda, bugun ham ko'pchilik oilalarda saqlanib qolgan bir odat bor: ovqat bitta katta idishga suziladi va o'tboshi boshlab bermaguncha boshqalar ovqatga qo'l uzatmaydilar, hamma kattani – cho'ngni kutadi. Bu odatning nafaqat odob, balki o'ziga xos tibbiy-gigiyenik jihati ham bor. Bu ovqatdan zaharlanish mumkinligining oldi olinishini, bolalarni mana shunday xavfdan himoya qilishni

"Metodist" 2025-yil 3-son

ham ifodalaydi, deyishadi kattalar. Muallif bu she'rida mana shu odatni ulug'larkan, she'r so'ngida:

*Imkon bersin yoshlarga,
O'z rizqini termogga.
Dasturxonda – jamuljam,
Dastlab qo'lin cho'zmoqqa,*

deydi. Bir qaraganda oddiygina satrlardek. Lekin dasturxon atrofida hamma jam bo'lganda dastlab oshga qo'l cho'zmoqlik mavqeiga erishish – bu o'zbekda farzandlar uchun eng oliy tilaklardan biri. Ya'ni, yoshlar – farzandlar, o'g'illar er yetib bir oilaga bosh bo'lishi, oila davrasida xotirjamlikda jam bo'lib o'tboshi sifatida ovqatni boshlab berish darajasiga yetishiga tilakdoshlik o'z aksini topgan.

Tabiat va tabiat hodisalaridan har bir qalamkash har xil ta'sirlanadi, uni har kim o'zicha ifodalaydi. R. Karim "Qor" she'rida tabiat ne'matlaridan biri qorning yog'ishini shunday tasvirlaydi:

*Gul ekmoqda zaminga osmon,
Paxta kabi gullarni – oppoq.
Dala-tuzlar, bog'-rog'lar shu on,
Oq gullarga burkangan – shaffof.*

Shoir xalqining ta'bi juda nozik bo'ladi va oddiy ko'z ilg'amaydigan hodisadan bir olam zavq olib o'z kechinmalarini bizga o'xshagan qor yoqqanda sovuqdan eti junjukadigan, qor yog'ishida faqat sovuqni his qiladigan "oddiy ko'z egalari"ga taqdim etadi, tasavvurini uyg'otib, muvozanatini buzadi. Tuyg'ularini injalashtiradi.

*Tabiatning nozik gullari,
Oqib ketar mehringni bersang.
Boshing uzra qor uchgunlari,
Tutqich bermas hidlamoq ersang.*

"Metodist" 2025-yil 3-son

Yuqoridagi to'rtlikning dastlabki ikki misrasini qayta o'qing. Labingizga nim tabassum yuguradi: qishda, tabiatning "nozik gullari"ga mehr ko'rsatish qanday bo'lishini tasavvur qildingizmi? Shu mehrdan u "gul"larning erib, "oqib ketishi"ni ko'z oldingizga keltirdingizmi? Qorga mehr ko'rsatish – uni ardoqlab kaftda tutish, uni yuz-ko'zga yaqinlashtirish, lablarga bosish... Qoyilmisiz?! So'z ahlining qudratiga tasannolar o'qidingizmi?! Ana shunaqa: she'r va shoir siz bilan bizga so'z bilan olam-olam zavq bag'ishlaydi. Kayfiyatimizni ko'taradi.

Endi keyingi ikki misrani qayta o'qing. O'ylab ko'ring-chi, nega shoir qorni hidlamoqchi? Qorni ham hidlab bo'ladimi? Ha, shoirnlarning tasavvurida qorni ham hidlab bo'ladi. Axir u qorni yer yuzini qoplagan oppoq, shaffof gullarga o'xshatdi-ku! Gulni ko'rgan har qanday odam, hatto siz bilan bizdek oddiy odamlar ham hidlaymiz-ku! Shoirning shoirligi shundaki, u qorda gulni ko'radi va shu gulni hidlab o'zi ham zavqlanadi, bizga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi.

O'zbekiston Qahramoni Abdulla Oripovning she'r va dostonlarini qirg'iz, rus va ingliz tillariga tarjima qilib AQSh hamda Kanadada chop ettirgan Rahim Karim shoirning vafotidan juda qattiq ta'sirlanadi va "Abdulla Oripov" degan she'rida:

*Dunyo bildimikan, bilmadimikan,
Ushbu kun kimni boy berib qo'yganiin?
Payg'ambarin yo'qotdi-ku She'riyat,
Chaqirib oldimi Alloh suyganin,*

deydi. Bu satrlarda millatning ulug'i A. Oripov "she'riyat payg'ambari" deb ulug'lanyapti. Ha, dunyo o'z ishi va o'z tashvishlari bilan ovora. "She'riyat payg'ambari" so'z va so'z ahli uchun ulug'. Azani she'riyat va shoirilar tutadilar. Ular ham o'z imkoniyatlari darajasida, albatta:

*Agar imkon menda bo'lsa, odamzod,
E'lon qilar edim jahonda motam.
Buyuk bir Insonni boy berdik, hayhot,
Ming yilda bir kelgan edi bu Odam!*

"Metodist" 2025-yil 3-son

*Olamning bayrog'i bo'lganda agar,
Tushirib qo'yardim bir necha kunga.
Shoirin yo'qotdi jamiki bashar,
Nimadir tiqlar bu dam xalqumga.*

Dunyo bino bo'lgandan beri har bir millat yoki xalqdan ne-ne ulug'lar keldi, ketdi. Har bir millat o'z dardini o'zi chekadi. O'zganing dardi uzoroqdan his qilinadi. Lekin o'zingniki ketsa, ayniqsa, ulug'ing ketsa, dildoshing ketsa, og'rig'i bo'lakcha bo'ladi. Rahimjon ham bir shoir sifatida bu og'riqni o'zidan o'tkazib o'zgacha his qilgan va tomog'iga tiqligan "nimanidir"ni so'z bilan ta'sirli ifodalay bilgan.

Ma'lumki, ko'ngildan kechgan tuyg'ular ko'ngillardan joy oladi. Shoir ko'nglidagi judolik dardini ifodalash uchun bir qator o'ziga bog'liq bo'lmagan ishlarni qilgisi va shu bilan dardiga ozgina bo'lsa-da malham bosgisi keladi. Lekin afsuski, bu ishlarning iloji yo'q. Bular uning qo'lidan kelmaydi. O'z iztirobi bilan o'zi yolg'iz qolaveradi. Faqat dardini qog'ozga to'kish bilan chegaralanadi, xolos.

Rahimjonning she'riyatida odamlar orasidagi mehr-oqibat, kishilarning bir-birlariga munosabati, ular bilan bog'liq millatlar va mamlakatlar orasidagi oqibatsizliklar tasviri yaxshigina o'rinni egallaydi. Uning "Bir do'stimning hasrati", "Suratlar", "Yolg'izlik", "Men ro'za tutyapman", "Yolg'iz ayol haqida", "Silkinmoq mavridi", "Iltijo", "Soxta odamlar", "Ba'zan", "Zilzila", "Endi kim davolagay", "Nayza" va hokazo bir qator she'rlari shular jumlasidandir.

O'zining "O'tinch" she'rida shoir shunday yozadi:

*Tomosha qilishni kutganlar bisyor,
Mening bu hayotda yiqilganimni.
Yuztuban ketkizma Tangrim, iloyo,
G'animlar ko'rmasin qoqilganimni.*

El nazarida bo'lgan odamlar – aktyorlar, san'atkorlar, shoir va yozuvchilar hamisha nazoratda bo'ladi. Bunday odamlarning do'sti ham, dushmani ham ko'p bo'ladi. O'zaro bir-birlariga munosabatida ham anglashilmovchiliklar, kelishmovchiliklar

"Metodist" 2025-yil 3-son

uchrab turadi. She'rlaridan anglash mumkinki, Rahimjon ham bundan mustasno emas. Chunki odamning so'zi uning ruhiyatidan, ko'nglidan chiqadi. Ayniqsa, ijodda, ilohiy holatlarda buni berkitishning iloji yo'q. Ko'ngildagi og'riqlar, iztiroblar, dard qog'ozga to'kiladi.

Ayrim "shunos"lar lirik qahramon boshqa, muallif boshqa, ikkalasini adashtirmaslik kerak, deyishadi. Bu fikrga hamisha ham qo'shilib bo'lmaydi. Agar muallif o'zgalar haqida yozsa, o'zgalarning dardi, shaxsi va hayotini tasvirlasa, shunday bo'lishi mumkindir – bunday she'rdagi bosh qahramon lirik qahramon bo'lar. Masalan, "Matmusaning dutori" yoki "Nazir otaning g'azabi" singari. Lekin so'zchi o'z iztiroblarini, ko'nglidagi og'riqlarini, uni ichdan qiynayotgan dardu azoblarini qog'oz bilan dillashib bayon qilayotgan bo'lsa, she'rning qahramoni qanaqasiga hech qanday qiyofaga ega bo'lmagan "lirik qahramon" bo'ladi?! She'rda ifodalangan dard, iztirob egasiz, shaxsi noma'lum, hissiz "lirik qahramon" niki bo'ladimi?

Shu ma'noda R. Karim qalamiga mansub yuqoridagi to'rtlikni muallifning o'tinchi, iltijosi deyish mumkin. Chunki odam o'zidan ayro yasholmaydi, o'zidan ajralgan holda yozolmaydi. Iztirolar qurshovida qolgan muallifning dildoshi qog'oz bo'ladi va tavallosi yagona Allohdan. Bu jamiki ijod ahliga tanish bo'lgan hayotiy holat.

*Ustimda turg'izma ag'yorlarimni,
Nima qilsang qilgin, uqmasin ohim.
Nomardga xor qilma ash'orlarimni,
Baxtimdan kuymasin dushmanim, Mohim!*

Shoirlar tabiatan bag'rikeng xalq. Bu sifat R. Karimga ham begona emas. Hatto shunday vaziyatda ham, hatto dushmani ham ayaydi: *"Baxtimdan kuymasin dushmanim"*. Agar shu yerda "kuymasin"ning o'rnida "kulmasin" so'zi qo'llanilganda mazmun ham, yondashuv ham, talqin ham butunlay o'zgarib ketgan va muallif haqida yuqoridagi gaplarni aytish mumkin bo'lmay qolardi. So'nggi satrning aynan shunday tizimlanishi muallif shaxsining ifodasidir.

"Metodist" 2025-yil 3-son

Shoir Rahim Karim qalamiga mansub bitiklardan yana biri "Bolish" she'ridir. Nomi bilan o'qirmanni sal ajablantiradigan bu she'r o'z mazmun-mantig'i bilan katta bir falsafiy hodisani ifodalaydi. Bolish – dardkash. Bolish – sirdosh. Bolish – shoirning tungi hamrohi.

*Sirlarimni aytdim tunlar bolishimga,
Bir u guvoh ba'zan yig'lab, nolishimga.
Yostiqliq quloqli tutdi unsiz xonishimga,
Izn bermay tunlar yolg'iz qolishimga.*

So'z ahli hamisha e'tiborga, e'tirofga ehtiyoj sezadi. Bir tinglovchiga, bir muharrirga, fikr aytuvchi bir yo'ldoshga muhtoj bo'ladi. Shoirni hamma ham tushunavermaydi. Tushunolmaydi. Ushbu she'rdagi yetakchi obraz – bolish. U shoirning ilk tinglovchisi. Suyanchig'i:

*Ba'zan tuqqan onam bo'ldi, otam bo'ldi,
Faryod cheksam jon saqlagan vatan bo'ldi.
Bosh qo'ygan dam yelkasiga – akam bo'ldi,
Ba'zan dardim o'rtoqlashgan opam bo'ldi.*

Bu satrlarni o'qigan kishi ko'nglidan bir og'riqli iztirob kechadi. Yostiqliq obrazi zimmasiga shoir qanchalar katta yuk orta bilgan! Satrlar mohiyatiga kirilsa, bu – yostiqlik ko'tarishga qodir bo'lgan yuk. Unga munosib yuk. Unga yarashiqli yuk. Muallif o'zi yaratgan obrazidan o'ta mohirlik bilan foydalangan. So'zlarni o'ynatib yuborgan. Yostiqlik timsolida o'z qadrdonlarini ko'ra bilgan. Ular bilan dillashgan, madad so'ragan, suyangan, dardlashgan:

*Shivirlasam – chin, vafodor do'stim bo'ldi,
Sovuqliq qotsam – egnimdagi po'stin bo'ldi.
Tinglaganda dildagi kam-ko'stim to'ldi,
Yiqilganda tiyab turgan ustun bo'ldi.*

*She'rilarimni ilk bor tinglar sho'rlik bolish,
Ko'z yoshimni shimib-shimib sho'rdir bolish.*

"Metodist" 2025-yil 3-son

*Bolishchalik bo'lmadi inson zoti,
Mening birlan dunda yuz bor o'ldi bolish.*

Oxirgi to'rtlikning ilk baytidagi "sho'r" so'zi ikki xil ma'no tashiydi. Birinchi misradagi "sho'rlik" achinish, rahmdillik hissini ifodalaydi. Bir tomondan, bolishning zimmasiga shuncha yukni ortib qo'ygani uchun muallif qahramoniga achinadi. Ikkinchi tomondan esa, hali pishmagan, tahrirga muhtoj satrlarni u eshitayotgani uchun achinayotgandek tasavvur uyg'onadi she'rxonda. Ikkinchi misradagi "sho'rlik" esa tabiiy jarayon – iztiroblardan og'rikan ko'ngildan sizib chiqqan sho'r ko'z yoshlarini yutib sho'r bo'lib ketgan bolish. Qarab turib bolishga xam, muallifga ham achinib ketgandek bo'ladi kishi. She'rdagi "ozoda misra" shuki: *"Bolishchalik bo'lmadi inson zoti"*. Ha, bu – hayot. Mazkur she'r hayot falsafasi. Muallifning umri falsafasi. Hayotdan chiqargan xulosasi.

Shoir Rahim Karim ijodida ruboiylar ham alohida o'rin tutadi. Muallif ruboiylariga ham falsafiy qarashlarini, hayotiy xulosalarini singdirgan:

*Chayonni o'ldirsang – undan qon chiqmas,
Faqat zahar chiqar, ki alvon chiqmas.
Zaharli chayondan qutulguncha to,
Sendin qon chiqar-u, andin jon chiqmas.*

Bu to'rtlikda hayot falsafasi tabiat qonuni bilan uyg'unlashgan. "Qon chiqmas", "alvon chiqmas" va "jon chiqmas" iboralari birgina o'lim hodisasini ifodalaydi. Ma'lumki, chayon Alloh tomonidan o'ziga buyurilgan ishni – zaharlashni biladi. Ruboiydagi majoziy timsol – chayon o'z tutumi bilan yaxshilarni ado qiladi. Bu dunyo muvozanati. Shoir buni yana bir to'rtligida quyidagicha ifodalaydi: *"Beg'ubor hislarga boy edi qalbim, Beshafqat kimsalar loy qildi qadrim. Qaydanam duch keldim yovuz zotlarga, Yog'ylar zulmidan dol bo'ldi qaddim"*.

Mazkur to'rtlikda ta'kidlanganidek, dunyoda yaxshi va yomon, oq va qora, to'g'ri bilan noto'g'ri, halol va harom hamisha baqamti yashaydi. Bu hayot shafqatsiz. U hamisha kurashlardan iborat. Odam zoti bu dunyoga kelibdiki, muammolar bilan kurashib, ba'zan

"Metodist" 2025-yil 3-son

yengib, ba'zan yengilib yashaydi. Hayotda quvonchli kunlardan ko'ra qayg'uli kunlar ko'proq. Bu Odamning yaratilishida tuproqqa yog'dirilgan yomg'irdan ma'lum. Lekin odamzod hamisha qaddi dol bo'lmashligi uchun kurashishga mahkum. Buni shoir keyingi to'rtlikda ifodalaydi:

*Xudo xohlab tursa, o'zim katta kuch,
O'zim ulkan qudrat, yov kelganda duch.
So'z bilan ag'dargum g'anim, nokasni,
Adolatsiz har qanday harakat – puch.*

Ha, har bandaning yori – Xudo! U haq uchun kurashgan bandasini, adolatni o'ziga shior qilgan zotni hech qachon tashlab qo'ymaydi. Shoir ham buni biladi va ishonadi. Shuning uchun yuqoridagi to'rtlikni yozgan va o'zini o'zi so'zi bilan qudratli his etib yashaydi.

Dunyo shoiri Rahim Karimning "Ko'ngil anatomiyasi" nomli she'rlar to'plamida ham bir qator she'rlar va g'azallar qatorida "Go'ro'g'li" (1986-yil yozilgan) nomli dramatik doston bor. Dostonni badiiy jihatidan ham, mazmun borasida ham, obrazlar kesimida ham tugal asar deb baholash qiyin. Lekin unda ko'tarilgan muammo olis saksoninchi yillarda ham, bugun ham odamlar orasida o'z dolzarbligini yo'qotmagan ahloq-odob, or-nomus masalasidir. O'zbeklarda qiz bolaning orini oilada otasi, aka-ukalari asrab-qo'riqlab yashashadi. Turmushga chiqqanidan keyin bu vazifa uning turmush o'rtog'i zimmasiga o'tadi. Qiz bolaning ori unga daxldor bo'lgan erkaklarning ori, nomusi hisoblanadi. Nomusi paymol bo'lgan qiz nafaqat o'zi, balki ota, aka-uka va erna ham boshini egadi. Ularni odamlar orasida bosh ko'tarib yurgulik qilmay qo'yadi. Dostonda allaqachonlar olamdan o'tib ketgan ota arvohining farzandi xatosi uchun u dunyoda ham orlanishi, yolg'iz ayolning o'z tili bilan aytgan: *"Uyga qaytsam – akam boshimni olar"* e'tirofi aka-ukalarning hayotiy munosabatini ko'rsatadi. Bizning o'zbekda nomus – o'limdan ortiq. Muallif dramatik dostonda mana shu milliy haqiqatni qalamga olgan. Boshqa ba'zi xalqlardagidek "yolg'iz ona" degan atama o'zbeklar uchun shunchaki qabul qilinadigan hodisa emasligini ta'kidlashga harakat qilgan.

"Metodist" 2025-yil 3-son

O'sha 80-yillar shoirning "Rangli ro'yo", "Beshinchi farz", "Xilqat" deb nomlangan she'riy to'plamlari, bolalarga atalgan "Hayvonot bog'i" nomli topishmoqlar kitobchasi o'zbek, qirg'iz, rus, lotin, ingliz tillarida chop etilgan.

R. Karimov nafaqat shoir, balki taniqli nosir hamdir. Uning, "Komila", "G'arib", "Otaning qizi", "Elning o'g'li", "Xiyonat", "La'li Badaxshon" kabi qissa va romanlari ham o'zbek, qirg'iz va rus tillarida dunyo yuzini ko'rgan. Uning "Komila" nomli romani 2005-yili Qirg'iziston respublikasi Milliy Kitob palatasi tomonidan uyushtirilgan "Kitob san'ati" respublika tanlovida "Milliy bestseller" deya e'tirof etilgan. Mazkur roman ham bunga qadar Qirg'iziston, Qozog'iston, Belarus, Buyuk Britaniya, Kanada kabi davlatlarda chop etilgan. Asar shu kungacha jami 12 tilga o'girilgan.

Rahim Karim qalamiga mansub dunyo kevgan "Komila" romanida ko'tarilgan yetakchi fikr – inson Allohning mezonlariga hiyonat qilmay yashasa, albatta, uning rag'batlari-yu marhamatlariga sazovor bo'ladi. Odamzod yorug' dunyoga kelibdiki, muammolar bilan kurashib yashaydi. Kurashdan, intilishdan to'xtagan odamning mayitdan farqi yo'q. Shu ma'noda romanda oddiy inson o'z ruhiyatining tozaligi, dunyoqarashi va saviyasi darajasidan kelib chiqqan holda mukammallik va baxt sari intilishi go'zal tasvirlangan. Komilaning iztiroblari juda samimiy. O'qigan odam, albatta, har kim o'zining darajasida, saboq oladi. Kitobni o'qigan yurtdoshlarimiz qo'shni mamlakatda yashayotgan o'zbeklarning turmush tarzi, tutumlari haqida tasavvurga ega bo'ladilar. Gap shundaki, inson qaysi makonda, qanday jamiyatda umrguzaronlik qilmasin, Odam degan nomga munosib yashasa, albatta istaganiga erishadi. Muallif romanda mana shu hayotiy haqiqatni ilgari surgan. Asar o'qirmanni o'z hayotini taftish qilishga, turmush tarzini bir elakdan o'tkazishga yo'naltiradi. O'ylashga undaydi.

Men she'riy, nasriy bitiklari va tarjimalari bilan o'zbek degan xalqning nomini, o'zbek so'zini yetti iqlimga olib chiqqan, dunyoning o'ttizdan ortiq davlati so'zchilari bitiklari bilan o'zbek va qirg'iz xalqini tanishtirgan o'zbek shoiri Rahim Karim bilan bir millatdoshim sifatida faxrlanam.

"Metodist" 2025-yil 3-son

Xullas, Rahim Karim qalamiga mansub she'riy to'plamlarni varaqlaganda, uning nasriy asarlarini o'qiganda bir olam zavq olasiz. Ba'zan o'kinasiz. Ba'zan dilingiz og'riydi. Ba'zan xursand bo'lasiz. Hayotdan saboqlar chiqarasiz. O'z she'rlari, nasriy asarlari va tarjimalari bilan dunyoning yetti iqlimidan o'rin olgan o'zbek shoiridan o'zingizga bir dildosh do'st yasab olasiz. Ha, aytgandek, uning nomi dunyo miqyosidagi Nobel mukofotiga taqdim etilgani bir o'zbek sifatida sizni ham quvontirsa kerak. Agar Xudo nasib etib Rahim Karim nomi adabiyot yo'nalishida Nobel mukofotiga loyiq topilsa, u shunday xalqaro mukofotga munosib topilgan birinchi o'zbek shoiri bo'ladi. Qirg'izistonlik o'zbek shoiri bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Rahim Karim. *Dunyoga yo'l*. – T.: Lesson Press, 2023. – 348 b.
2. Rahim Karim. *Ko'ngil anatomiyasi*. – T.: Lesson Press, 2023. – 356 b.
3. Rahim Karim. *Umr falsafasi*. – T.: Lesson Press, 2023. – 360 b.

"Metodist" 2025-yil 3-son

METODIKA ILMIDAN TA'LIM AMALIYOTIGA

BOSHLANG'ICH SINFLARDA BADIY ASARNI TAHLIL QILISHNING METODIK ASOSLARI



Safa MATCHONOV

ChDPU professori, pedagogika fanlari doktori.
El. manzil: safomatchonov1949@gmail.com

Annatsiya. Mazkur maqolada umumta'lim maktablarida adabiyot o'qitish metodikasi ilmining bilimdoni, pedagogika fanlari doktori, professor, S.Matchonovning boshlang'ich ta'limga bolalar adabiyotini o'qitish metodikasiga mustaqil o'quv predmeti sifatida qarash lozimligi ilmiy-metodik jihatdan asoslangan. Shuningdek, boshlang'ich sinflarda badiiy matn ustida ishlash bosqichlari va usullari haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: badiiy matn, asar tahlili, ifodali o'qish, asarning g'oyaviy asoslari va mavzusi, obrazlar tizimi, sujet chizig'i, kompozitsiya va tasviriy vositalar, o'quvchilarning bilish faoliyatini shakllantirish.

Abstract. In this article, the scientific and methodological foundations of treating the methodology of teaching children's literature in primary education as an independent academic subject are presented by S. Matchonov — a distinguished scholar in the field of literature teaching methodology, Doctor of Pedagogical Sciences, and Professor. The article also discusses the stages and methods of working with literary texts in primary school classes.

Keywords: literary text, analysis of the work, expressive reading, ideological basis and theme of the work, system of images, storyline, composition and visual means, formation of cognitive activity of students.

Абстрактный. В данной статье с научно-методической точки зрения обоснована необходимость рассматривать методику преподавания детской литературы в начальном образовании как самостоятельную учебную дисциплину. Автор — С. Матчанов, доктор педагогических наук, профессор, знаток методики преподавания литературы в общеобразовательных школах. Также в статье рассматриваются этапы и методы работы над художественным текстом в начальных классах.

"Metodist" 2025-yil 3-son

Ключевые слова: художественный текст, анализ произведения, выразительное чтение, идейная основа и тема произведения, система образов, сюжетная линия, композиция и изобразительные средства, формирование познавательной деятельности учащихся.

Zamonaviy maktab oldiga qo'yilgan vazifalar, kichik maktab yoshidagi o'quvchilar umumiy rivojlanishining o'sganligi, shuningdek, psixologiya va xususiy metodika sohasidagi yutuqlar sinfda o'qish mazmuni va o'qitish metodlariga o'zgartirish kiritishni talab etmoqda. Shularga bog'liq holda badiiy asarni tahlil qilish metodikasi takomillashtira borildi: takroriy bayon qilish mashqlari kamaytirildi, ijodiy va o'qilgan matn yuzasidan o'z fikrini bayon qilish ko'nikmasini o'stiradigan mashqlar ko'paytirildi, asar qismlari ustida emas, balki yaxlit asar ustida ishlanadigan bo'ldi, asar g'oyasi va obrazlarini tushuntirishda o'quvchilarning mustaqilligi ortdi, matn ustida ishlashda xilma-xil topshiriq turlaridan, ta'limga texnika vositalaridan va ilg'or pedagogik texnologiya usullaridan ko'proq foydalanila boshlandi va hk.

XX asrning 60-yillarida yaratilgan o'quv dasturida kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda shakllantiriladigan matn ustida ishlash ko'nikmalari belgilab berildi, shuningdek, 1-4-sinflarda o'qish malakasiga qo'yilgan talablar ancha aniq ajratildi. XX asrning 70-yillari boshlarida mazmuni va metodik apparati jihatidan hayotga yaqinlashtirilgan O'qish kitoblari yaratildi. Shu nuqtai nazardan boshlang'ich sinflarda badiiy asar quyidagi muhim metodik shartlar asosida tahlil qilishga alohida e'tibor qaratildi:

1. Asar mazmunini tahlil qilish va to'g'ri, tez, ongli, ifodali o'qish malakalarini shakllantirish bir jarayonda boradi (asar mazmunini tushuntirishga oid topshiriq o'qish malakalarini takomillashtirish topshirig'i ham hisoblanadi).

2. Asarning g'oyaviy asoslari va mavzusini, uning obrazlari, sujet chizig'i, kompozitsiyasi va tasviriy vositalarini tushuntirish o'quvchilarning shaxs sifatida umumiy kamol topishiga yaxshi xizmat qiladi, shuningdek, bog'lanishli nutqining o'sishi (lug'atining boyishi va faollashishi)ni ta'minlaydi.

"Metodist" 2025-yil 3-son

3. O'quvchilarning hayotiy tajribasiga tayanish asar mazmunini ongli idrok etishning asosi va uni tahlil qilishning zaruriy sharti hisoblanadi.

4. Sinfda o'qishga o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish, atrof-muhit haqidagi bilimlarini kengaytirish va ilmiy dunyoqarash asoslarini shakllantirishning samarali vositasi sifatida qaraladi.

Asarni tahlil qilishda hisobga olish zarur bo'lgan muhim omillardan biri uning o'quvchilarga hissiy ta'siridir. O'quvchilar muallifning asosiy fikrini tushunibgina qolmay, u hayajonlangan voqeadan ham hayajonlansinlar. Matnni tahlil qilish o'quvchida fikr qo'zg'atishi, hayotiy tajribasining muallif qayd etgan dalillarga to'g'ri kelish-kelmasligini aniqlashi zarur. Tahlil davomida asarning estetik qimmatini, badiiy go'zalligi ham alohida qayd qilib o'tiladi.

O'qish darslarida o'quvchilarda badiiy asarlarning bir-biridan farqini ajrata olish, yozuvchining hayotiy voqealarni qanday badiiy vositalar orqali aks ettirgani va qanday obrazlar yaratganini aniqlay olish, mustaqil o'qish va asarni tahlil qilish malakasi hosil qilinadi. O'quvchilar adabiy ma'lumotlarni o'zlashtirish orqali badiiy asarning mazmuni, g'oyasi va ahamiyatini anglab ola boshlaydilar.

O'quvchilarning nutqini o'stirishda, yuqoridagilar bilan birga, adabiy tushunchalarni shakllantirish ham muhim o'rin tutadi. O'quvchilar adabiy tushunchalarni o'rganish natijasida badiiy adabiyot san'atning bir turi ekanligi, uning hayot bilan aloqadorligini bilib oladilar.

Boshlang'ich sinflarda asar tahlilida badiiy til vositalari – sifatlash, o'xshatish, jonlantirish, mubolag'a va adabiy janr turlari – ertak, hikoya, masal, she'r, doston, maqol, topishmoq kabilar bilan amaliy ravishda tanishtiriladi.

Badiiy asar tilini tahlil qilish orqali o'quvchilarda o'z ona tiliga muhabbat hissi, badiiy asarni ongli o'qish ko'nikmasi o'stiriladi, asar g'oyasini chuqur idrok etishga zamin hozirlanadi, o'quvchilar nutqi rivojlaniriladi.

Xalq og'zaki ijodida ertak janrining bolalar tomonidan yaxshi qabul qilinib, qiziqib o'qilishining sabablaridan biri ertak tilining

"Metodist" 2025-yil 3-son

ta'sirchanligi, o'tkir syujetligi va xalq tiliga yaqinligidir. Ertak o'qib bo'lingach, uning badiiy tili ustida ishlashga alohida ahamiyat berish zarur. Masalan, "Oltin gaz argon" ertagida "hammaning ishi ishda, oshi oshda qolib, jang maydoniga qarab yuguribdi" "...g'azabga to'lib, ... yelday yuguribdi" kabi badiiy vositalar yordamida tasvirlangan manzaralar juda ko'p. Ular ustida ishlash o'quvchi nutqini o'stirish bilan birga fikr yuritishga, mulohaza qilishga ham o'rgatadi.

Ertaklarda o'xshatishlar, jonlantirish va mubolag'alardan foydalanilgan. O'quvchilarga ularni izohlab berish, keyinchalik matndan toptirish, qayta hikoyalashda ulardan nutqlarida foydalanishga o'rgatish zarur.

Asar o'qib bo'lingach, badiiy til vositalari ustida ishlanadi. Chunki ularning ma'nosi matndan, asar mazmunidan anglashiladi. Ayniqsa, masallarda allegoriyani ochishda ko'chma ma'noli so'zlardan ko'p foydalaniladi. Ular bolalarga masal mazmunini tushunishga halal bergani uchun ayrim ko'chma ma'noda ishlatilgan so'zlar asarni o'qishdan oldin tushuntiriladi. Masalan, "Ayamajiz" (Quadrat Hikmat) she'rida "Bo'ralar qor kapalak", "Bog'lar sokin mizg'ishar Misoli oq kapalak", "Muz oynalar sovuq yeb" misralarida o'xshatish, jonlantirish; "Saxiy ona tabiat", "quchoq'ida havo sof" misralarida metafora, "Ayamajiz izg'iydi, Ko'chalarda tutaqib, Shox-shabbani tortqilar, Yalmog'izdek yutoqib" kabi misralarda o'xshatish, jonlantirishlar qo'llangan. Shuningdek, "Qish to'zg'itar momiq par" (Quadrat Hikmat) she'rida "Yerga serbar oq namat", "Pirpiratib ko'zini Avtobuslar o'tadi Qahraton qish hovurni Mo'rkon kabi yutadi", "Tomlar kiydi oq qalpoq, Hovilarda sep tepa Osmon elak nazdimda, Shahrimizga un separ" misralarida o'xshatish, jonlantirishlar qo'llangan. Bular ustida ishlaganda quyidagicha savol-topshiriqlardan foydalanish mumkin:

1. Shoir qorni nimaga o'xshatadi? (Momiq parga).
2. Avtobus chiroqlarini-chi? (Pirpiragan ko'zga).
3. "Muz oynalar sovuq yeb" misralarini qanday tushundingiz?

Oyna sovuq qotadimi?

Maqol janrida ham ko'chma ma'noli so'zlar ko'p qo'llanadi. Masalan, "Yurt **boshiga** ish tushsa, Er yigit hozir" maqolida

"Metodist" 2025-yil 3-son

"boshiga" so'zi metafora yo'li bilan ma'nosi ko'chgan, o'quvchilarga uning ma'nosi qanday usul bilan ko'chganligi aytilmaydi, faqat boshqa ma'noda qo'llanganligi o'z ma'nosi bilan taqqoslangan holda o'quvchilarga o'rgatiladi.

Topishmoqlarda ham jonlantirish va o'xshatishlar juda ko'p. Masalan, "Ayoq bobo novvot sotti, Olgan edim, qo'lim qotdi" topishmog'ida o'xshatish, "Chi-qchiq" ishlab tolmaydi, tunda uxlab qolmaydi" topishmog'ida jonlantirish qo'llangan.

"Chumoli va Tipratikan", "O'jar toshbaqa" masallarida ham badiiy til vositalari mavjud. Xususan, ularda "O'g'irlik mol aylar jonsarak", "Bola ko'nglin ko'tarar", "Kosang joningga huzur", "Senga qalqon usti-bosh", "Parcha go'sht bo'lib yurar", "Jish Toshbaqa" kabi ibora, birikma va gaplar uchraydiki, ular ustida ishlashda "Bunday mojaralar qachon va kimlar orasida bo'lib o'tishi mumkin?", "Bunga hayotdan misollar keltiring" kabi topshiriqlar berish, ulardagi ma'noli boshqacha yo'sinda bayon ettirish, o'zaro taqqoslash, ta'sirchanligidagi farqni aniqlatish katta ta'limiy ahamiyat kasb etadi. Masalan: "Bola ko'nglin ko'tarar" – Bolasiga yaxshi gaplar gapirar, "Kosang joningga huzur" – Kosang joningni, sog'lig'ingni asraydi" kabi.

Boshlang'ich sinflarda adabiy tushunchalar va badiiy vositalar ustida ishlash o'quvchilarning ijodiy tafakkurini o'stirishga, ularda jonlantirish, o'xshatish, mubolag'a kabi adabiy tushunchalar yuzasidan dastlabki tasavvur hosil qilishga yordam beradi.

O'qish metodikasi adabiyotshunoslik, psixologiya, pedagogika ishlab bergan nazariy qoidalarga asoslanadi. Sinfda o'qishni to'g'ri uyushtirish uchun o'qituvchi badiiy asarning o'ziga xos xususiyatlarini, ta'limning turli bosqichlarida o'qish jarayonining psixologik asoslarini, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning matnini idrok etish va o'zlashtirish xususiyatlarini hisobga olishi zarur.

O'qish ta'limi bo'yicha o'quvchilarni faqat matn bilan tanishtirish yordamida dastur talablariga javob berib bo'lmaydi. Negaki, matn tagzaminidagi tarbiyaviy g'oya uni tushunish, idrok qilish natijasidagina ochildi. Boshqacha aytganda, har qanday asardagi seyr-joziba matn zaminidagi yashirin mazmun-mohiyatni anglab yetilganda o'quvchi diqqatini o'ziga jalb etishi mumkin.

"Metodist" 2025-yil 3-son

Bunga adabiy-nazariy tushunchalarni o'zlashtirish, adabiy tahlil malakalarini shakllantirish orqali erishiladi.

Asar tahlili jarayonida o'qituvchi savollariga o'quvchilarning o'z so'zlari bilan javob berishi ham matnda tasvirlangan voqea-hodisalar yuzasidan mantiqiy fikrlashga, qahramonlarning xatti-harakatlarini to'g'ri baholashga yaqindan yordam beradi. Savollar uzuq-yuluq va mantiqsiz bo'lmasdan, qat'iy maqsad asosida izchil berilishi o'quvchilarning o'qilgan matn mohiyatini chuqur anglab yetishlariga imkon yaratadi, chunki har qanday javob mustaqillikni taqozo etadi.

O'qish kitoblariida turli janrdagi badiiy asarlar va ilmiy-ommabop maqolalar o'rganiladi. Istalgan asarning obyektiv mazmuni butun borliq, mavjudot, uning turli tomonlari, dalillar va ularning bir-biriga ta'siri hisoblanadi. Badiiy asarda hayot obrazlar orqali tasvirlanadi. Shuni ta'kidlash kerakki, badiiy asar markazida inson, uning jamiyat va tabiatga munosabati turadi.

Badiiy asarda borliqni, voqelikni obrazlar vositasida tasvirlash, obyektiv mazmun va subyektiv bahoni aniq materialda berish haqidagi qoidalar metodika uchun katta nazariy-amaliy ahamiyatga ega. Birinchidan, badiiy asar ustida ishlashni tashkil qilishda obrazlar va muallifning asarda tasvirlangan voqealarga munosabati o'qituvchining diqqat markazida turadi. O'quvchilar voqelikni obrazlar orqali tasvirlashning o'ziga xos xususiyatlarini tushuna boradilar.

Ikkinchidan, har qanday badiiy asarda aniq tarixiy davrdagi voqealar tasvirlanadi. Shuning uchun asarda tasvirlangan voqealarga tarixiy yondashilgan taqdirdagina matnni to'g'ri o'qish, qatnashuvchi shaxslarning xatti-harakati sabablarini tushunish, dalillar va voqealarni haqqoniy baholash mumkin. Buni boshlang'ich sinflarga tatbiq etganda, avvalo, bolalarni asarda tasvirlangan davr bilan qisqacha tanishtirish, keyin o'quvchilarda qatnashuvchi shaxslarning xatti-harakatini ular yashagan davr va ijtimoiy omillarni hisobga olgan holda baholashni o'stirish zarur.

Uchinchidan, yozuvchining hayoti va qarashlarini o'quvchi yoshiga mos ravishda tanishtirish maqsadga muvofiq.

To'rtinchidan, badiiy asarni tahlil qilishda o'quvchilarni asarning g'oyaviy yo'nalishini tushunishga o'rgatish muhimdir, bu

asarni to'g'ri idrok etish uchun, matn ustida ishlash ko'nikmasini, o'quvchilarning dunyoqarashini shakllantirish uchun zarur. Muallif badiiy asarda tasvirlangan hayotiy dalillarga, ijtimoiy hodisalarga, jamiyatning u yoki bu tabaqasi vakillariga o'z munosabatini ifodalashga harakat qiladi. Yozuvchining hayotiy materiallarga bahosi aniq dalillar asosida yaratilgan badiiy asarning g'oyaviy mag'zini tashkil etadi. Asarning g'oyaviy yo'nalishi yozuvchining dunyoqarashiga; tarbiyaviy ahamiyati, o'quvchiga ta'sir kuchi uning g'oyaviy yo'nalishiga bog'liq.

Badiiy asar ustida ishlashni to'g'ri tashkil qilish uchun shakl va mazmun birligi haqidagi qoida ham e'tiborga olinadi. Badiiy asar ustida ishlash va uning asosiy bosqichlarini belgilashda o'qituvchi badiiy asarning san'at asari sifatida o'ziga xos xususiyatlari va o'quvchilarning tayyorgarlik darajasini nazarda tutadi.

Badiiy asarda barcha qismlar (g'oyaviy asos, kompozitsiya, syujet, tasviriy vositalar) o'zaro bog'liq bo'ladi. Syujet rivoji asosida asar qahramonlarining yangi-yangi qirralari ochila boradi. Bu xususiyatlar asar ustida ishlashda uni yaxlit o'qish va idrok etishni talab etadi.

O'quvchilarni badiiy asar ustida ishlashga o'rgatish ularda adabiy-estetik tahlil malakasini shakllantirish va o'stirish orqali ta'lim-tarbiya berishni nazarda tutadi. Asar matnini tahlil qilish muallif fikrini, hissiyoti va xulosalarini tushunishga yordam beradi, unda ifoda etilgan voqealarga munosabat uyg'otadi. Asar tahlili o'qituvchidan o'quvchilar faoliyatini ma'lum maqsadga yo'naltirishni taqozo qiladi.

"Maktabda badiiy asarni tahlil qilishdan asosiy maqsad asarda ifodalangan hayotiy voqeani yoritish orqali o'quvchilarni badiiy adabiyot olamiga olib kirish, tasvirlanayotgan voqealarga nisbatan muallifning munosabati va niyatlarini payqab olishga imkoniyat yaratishdan iboratdir. O'quvchilarning yozuvchi oldinga surgan g'oya, muammolarni to'liq tushunishlariga erishmay turib, adabiyotning yoshlarni tarbiyalashdagi vazifasini amalga oshirib bo'lmaydi" [3].

O'quvchi asarning mazmuni bilan uni mutolaa qilish paytida tanishsa, tahlil qilishda uning poetik vositalariga murojaat qiladi.

Mutolaa hissiyotni boyitib, aqlni peshlasa, tahlil asar zamiridagi ma'noni chuqur o'rganishga yordam beradi.

O'qituvchi badiiy asar ustida ishlashda quyidagi masalalarni hal qilishi lozim:

1. Asar ustida ishlashning maqsad va mazmunini aniqlab olishi.
2. Asarni tahlil qilish uchun dars bosqichlarini belgilab olishi.
3. Har bir asar tahlili uchun topshiriqlar tizimini ishlab chiqishi.
4. Asarni qanday metodlar asosida o'rganishni aniqlashi.
5. O'quvchilar egallaydigan bilim, ko'nikma va malakalar doirasini belgilab olishi.

Boshlang'ich sinflarda badiiy asar ustida ishlash uch asosiy bosqichga bo'linadi:

Birinchi bosqich (birinchi sintez). Bu bosqichning asosiy vazifasi matnni yaxlit idrok etish asosida asarning aniq mazmuni va tasviriy ifoda vositalari bilan tanishtirishdan iborat.

Ikkinchi bosqich (analiz). Bu bosqichning vazifasi va ish mazmuni voqealar rivojining bog'lanishini belgilash, ishtirok etuvchi shaxslarning xulq-atvori va ularning asosiy xususiyatlarini aniqlash (nega shunday qildi va bu uning qanday xususiyatini ochadi), asar kompozitsiyasini ochish (tugun, kulminatsion nuqta, yechim), asarning aniq mazmunini tasviriy vositalar bilan birga tahlil qilish va qahramonlar xulq-atvorini baholash (muallif nimani tasvirlagani, qanday tasvirlagani, nima uchun u yoki bu dalilni tanlagani)dan iborat.

Uchinchi bosqich (ikkinchi sintez). Bu bosqichning ish mazmuni ishtirok etuvchi shaxslarning muhim xususiyatlarini umumlashtirish, qahramonlarni taqqoslash va baholash, asar g'oyasini aniqlash, badiiy matnni hayotni bilish manbayi va san'at asari sifatida baholash (qanday ma'lumotlarga ega bo'ldik, asar nimaga o'rgatadi, muallif o'z fikri va taassurotlarini qanday qilib aniq, ravshan va ta'sirli tarzda yetkazadi va hokazo)dan iboratdir.

Ikkinchi sintezdan so'ng o'qilgan asarga bog'liq holda ijodiy xarakterdagi ishlar o'tkaziladi.

Asar maqsadga muvofiq tahlil qilinsa, o'quvchilar faolligi ortadi, chunki asarni tahlil qilish ular uchun ijodiy jarayondir.

Boshlang'ich sinflarda to'g'ri, tez, og'li va ifodali o'qishga o'rgatish vazifasi o'quvchilarda asarni tahlil qilish ko'nikmasini shakllantirish bilan birga amalga oshiriladi. O'qish malakalarini shakllantirish bilan matn ustida ishlashning o'zaro bog'liqligi asarni tahlil qilishga qanday yondashishni belgilab beradi.

Badiiy asar ustida ishlashning 2-bosqichi asar tahlilidir. Asarni tahlil qilishning asosiy yo'nalishi matnning aniq mazmuni (voqealar va uning rivojlanishi)ni, kompozitsiyasini, ishtirok etuvchi shaxslarning axloqi va xarakterli xususiyatlarini, asarning g'oyasini aniqlash hisoblanadi.

Asarni tahlil qilishning metodik shartlaridan biri asar mazmunini uning tasviriy-ifodaviy vositalari bilan bog'liq holda qarashdir. Yana bir asosiy qoida asar ustida ishlash jarayonida ta'lim-tarbiyaviy vazifalarni umumiy ravishda amalga oshirish hisoblanadi. Bu qoidalar asar ustida ishlashning asosiy yo'nalishini belgilaydi, shuningdek, matnni tahlil qilish jarayonida o'quvchilar bajaradigan topshiriqlarni va muhokama qilish uchun ularga beriladigan savollarning xarakterini aniqlab olishga yordam beradi.

Asar tahlili jarayonida matn ustida ishlashning quyidagi turlaridan foydalaniladi:

1. Tanlab o'qish. Bunda o'quvchi matnning berilgan vazifaga mos qismini o'qiydi. Vazifa asarning mazmunini oydinlashtirish, sabab-natija bog'lanishini belgilash, badiiy xususiyatini ochish, o'qilgan matnga o'z shaxsiy munosabatini ifodalashdan iborat bo'lishi mumkin. Tanlab o'qish matn ustida ishlashning eng samarali usulidir. Tanlab o'qishdan matn ustida ishlashning barcha bosqichlarida turli xil qiyinchilikda, murakkablikda foydalaniladi. U o'quvchilarda yaxshi o'qish sifatlarini o'stirish bilan birga ularning ijodiy tasavvuri, nutqi va zehni o'stirishga yordam beradi. Eng oddiy tanlab o'qish asar mazmuni yuzasidan bo'ladi.

Tanlab o'qish og'li va ifodali o'qish malakasini shakllantirishni matn ustida ishlash ko'nikmasini shakllantirish bilan birga qo'shib olib borishga, bolalarning ijodiy tasavvurini, nutqi va zehni o'stirishga imkon beradi. Shuning uchun undan o'qish darslarida keng foydalaniladi. Tanlab o'qish matn rejasini tuzishda (matn qismiga uning mazmunini ifodalaydigan gapni,

ya'ni reja qismini topishda) qahramonga tavsif berish (matndan qahramonning muayyan bir xususiyatini, harakatini tavsiflovchi materiallar tanlash)da, asar g'oyasini aniqlash (g'oyani anglatgan o'rinni topib o'qish)da tatbiq etiladi.

2. O'quvchilarning berilgan savol va topshiriqlarga o'z so'zlari bilan javob berishi. Mashqning bu turi o'quvchilarda o'qilganlar yuzasidan muhokama yuritish ko'nikmasini o'stirishga, asarda qatnashuvchi qahramonlarni baholashga, muallif tasvirlagan hayotiy lavhalar bilan asar g'oyasi o'rtasidagi bog'lanishni aniqlashga imkon beradi. Ishning bu turida beriladigan savollar ma'lum maqsadga yo'naltirilgan va muayyan izchillikda bo'lishi, o'quvchilarni mustaqil fikrlashga undashi lozim. Boshlang'ich sinf o'qish darslarida savol va topshiriqlar qaysi maqsadga yo'naltirilganiga ko'ra quyidagicha tasnif qilinadi:

a) asar mazmunini o'zlashtirish va qayta hikoyalashga doir savol-topshiriqlar.

b) asar tilini o'rganish va o'zlashtirishga doir savol-topshiriqlar.

Savol-topshiriqlar ustida jamoa, juft va yakka tartibda ishlash mumkin.

3. O'quvchilarni savol berishga o'rgatish. O'quvchilarning o'zlarini ham savol tuzishga o'rgatish lozim. Zero, to'g'ri qo'yilgan masalaning o'zi yarim javobdir. Matn yuzasidan savol tuzishda o'quvchining dars mavzusi bilan bog'liq jihatlariga e'tibor berishi asarda tasvirlangan voqea-hodisalar o'rtasidagi sababiy bog'lanishlarni bilib olishga, hayotiy xulosalar chiqarishga yo'l ochadi. Shuning uchun ham matn yuzasidan savol tuzish o'quvchini og'li va tushunib o'qishga yo'llaydi. O'quvchilarni savol berishga o'rgatish matn ustida ishlashda yaxshi natija beradi. O'quvchilar matnni og'li o'zlashtira olsalargina, matn yuzasidan savol bera oladilar. Sh. Sa'dullaning "Qovun sayli" hikoyasi yuzasidan savol tuzish topshirig'i quyidagicha beriladi:

– Hikoyadagi birinchi xatboshini o'qing va shu qism yuzasidan savol tuzing.

– Hikoyadagi birinchi xatboshida qo'llangan so'zlarning ma'nosini izohlash bo'yicha savol-topshiriqlar tuzing. (Bejirim, sertor so'zlarining ma'nosini izohlang)

"Metodist" 2025-yil 3-son

– Hikoya qahramonlari tabiati, boshqalar bilan munosabatlari yuzasidan savollar tuzing va shu kabilar.

Keyinchalik o'quvchilar muhokama va ijodiy savollar berishni ham o'zlashtirib oladilar.

4. Matnni tasvirlash. Matnni tasvirlash matn ustida ishlashda katta ahamiyatga ega bo'lib, o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi, undan to'g'ri foydalanish esa asarda yozuvchi tasvirlagan hayotiy manzaralarni o'quvchilar aniq tasavvur qilishlari uchun qulay imkoniyat yaratadi. Matnni ikki xil tasvirlash mumkin: 1) so'z bilan tasvirlash; 2) grafik tasvirlash.

So'z bilan tasvirlash o'ziga xos murakkab ish turi bo'lib, unda manzarani so'z yordamida aniq qayta tiklash talab etiladi. So'z bilan tasvirlash, shuningdek, grafik tasvirlash uchun ham o'quvchi matnni, undagi voqea sodir bo'lgan vaziyatni, qatnashuvchilarning tashqi ko'rinishini, xarakterli xususiyatlarini yaxshi bilishi zarur. So'z bilan tasvirlashda so'zlarni aniq tanlash talab qilinadi, bu esa o'quvchilar nutqini rivojlantirishda foydali vositalardan biri hisoblanadi.

Tasvirlashdan o'qituvchi turli maqsadlarda, chunki, reja tuzishga asos sifatida, qayta hikoyalashga tayyorlashda, voqea yuz bergan sharoitni aniqlashda foydalanadi. Tasvirlashdan mustaqil ish sifatida ham foydalaniladi: o'qituvchi matnning ma'lum qismidan o'quvchilarga juda ma'qul bo'lgan manzarani so'z bilan yoki grafik tasvirlashni, unga muallif so'zini tanlashni hamda turli tabiat manzaralarini, qatnashuvchi kishilarning tashqi ko'rinishini, voqea sodir bo'lgan joylarni tasvirlashni topshiriq qilib berishi mumkin.

Matnni so'z bilan tasvirlashga o'rgatishni darslikda beriladigan rasmlarni matndagi shu rasmga mos qism bilan taqqoslab tasvirlashdan boshlash kerak.

So'z bilan tasvirlash bosqichma-bosqich, maxsus tayyorgarlikdan so'ng amalga oshiriladi:

1. Matndan manzara, vaziyat yoki qahramonlarning tashqi ko'rinishi tasvirlangan o'rinlar aniqlanadi.

2. Nisbiy tugallangan o'rinlar ajratiladi.

3. Tasvirlashga leksik-uslubiy tayyorgarlik ko'riladi, ya'ni yozuvchi, shoir qo'llagan lug'aviy birliklarga o'quvchilar diqqati

"Metodist" 2025-yil 3-son

tortiladi va ular tahlil qilinadi. Tasvirlashda so'zni aniq tanlashga yordam beriladi.

4. So'z bilan tasvirlashga o'rgatishning dastlabki paytida xattaxtaga foydalaniladigan so'zlar yozib qo'yilishi zarur. So'z bilan tasvirlash qayta hikoyalashga aylanib qolmasligi lozim.

Grafik tasvirlash ko'proq uyda bajariladi. Buning uchun o'quvchilar tasvirlanadigan matn qismini ajratadilar, uni diqqat bilan o'qib chiqadilar, mazmunini o'zlashtiradilar va unga mos rasm chizadilar. Bunda o'quvchilar bilan qanday ranglardan foydalanish, ranglar ifodalaydigan ma'nolar bo'yicha suhbat o'tkaziladi. Rasmlar ko'rgazmasi tashkil etiladi. Har bir rasm muallifi o'zi chizgan rang tasvirini izohlab beradi. Kompyuterlashtirilgan sinflarda grafik tasvirlash sinfda ham bajartirilishi mumkin. Bunda o'quvchilarning ijodiy yondashuvlariga imkon beriladi.

O'quvchilar asar voqealari rivojini seriyali rasmlar asosida muayyan izchillikda tasvirlashlari ham, har bir rasm seriyasi ostida shu qismda ifoda etilgan muhim fikrlarni yozib qo'yishlari ham mumkin. Bular asar matnini to'liq qayta hikoyalash, shuningdek, o'qilgan hikoya, maqolaning rejasini tuzish, matn mazmunini, uning tasviriy vositalarini bilib olishga yordam beradi.

5. Asar rejasini tuzish. Reja matn mazmunini ogli va chuqur tushunishda, asosiy fikrni ajratishda, voqealarning izchilligini belgilashda, matn qismlarining o'zaro bog'lanishini tushunishda o'quvchilarga yordam beradi. Reja ustida ishlash o'quvchilar nutqi va tafakkurini o'stiradi. Ular matnni mazmunan tugallangan qismlarga bo'lishga va har bir qismning asosini topishga, ularga qisqa va aniq sarlavha topishga, uni reja qismi sifatida shakllantirishga o'rganadilar.

Reja tuzishga tayyorgarlik ishlari savod o'rgatish davridayoq boshlanadi. Tayyorgarlik mashqining eng oddiy turi berilgan sarlavhalardan kichik matn mazmuniga mosini topib qo'yish hisoblanadi. Bunday mashqqa o'rgatishda o'qituvchi sarlavha asosiy fikrni ifodalashini ta'kidlaydi, bolalar topgan sarlavhani tahlil qilib, u yoki bu sarlavha nima uchun mos yoki mos emasligini tushuntiradi. Reja tuzishga tayyorgarlik ishingini ikkinchi turi

"Metodist" 2025-yil 3-son

o'qituvchi rahbarligida tanlab o'qish hisoblanadi, bolalar matndan o'qituvchi bergan savolga javob bo'ladigan o'rinni topib o'qiydilar.

Reja tuzish "oddiydan murakkabga" tamoyili asosida asta-sekin murakkablashtirilib, muayyan izchillikda o'tkazib boriladi. O'quvchilar 1-sinfda o'qilgan kichik matnga o'qituvchi rahbarligida so'roq gap tarzida sarlavha tanlashlari, 2-sinfda kichik maqolaning rejasini o'qituvchi rahbarligida so'roq yoki darak gap tarzida tuzishlari, 3-sinfda o'qilgan matn rejasini jamoa bo'lib tuzishlari, 4-sinfda mustaqil reja tuzishlari kerak.

Rejaning eng oddiy shakli rasmi reja hisoblanadi. Buning uchun avval bolalar kitobda berilgan rasmlardan matn qismiga mosini tanlashga va uni nomlashga o'rgatiladi, keyin matn qismiga tayyor rasm berilmaydi, uni bolalarning o'zlari so'z bilan tasvirlaydilar. Hikoya o'qiladi va qismlari bo'yicha tahlil qilinadi, so'ng o'quvchilar matnning 1-qismini o'qiydilar, o'qituvchi ulardan qanday rasm chizish mumkinligini so'raydi. Qolgan qismlari ustida ham ishlar shu tarzda ishlanadi. O'quvchilar chizgan rasmlariga nom (sarlavha) qo'yadilar. Ular qo'yg'an nom sarlavha doskaga reja qismi tarzida yozib beriladi.

O'quvchilar rasmi reja tuzishdan mantiqiy reja tuzishga o'tadilar. Bunday reja tuzish quyidagi izchillikda o'rgatiladi:

1. O'qituvchi qismlarga bo'lingan matnga tanlab reja tuzadi va matn rejasining o'rnini almashtirib, sarlavha tarzida xattaxtaning chap tomoniga yozib qo'yadi. O'quvchilar matnning 1-qismini o'qiydilar, shu qism mazmuniga mos sarlavhani topadilar, uni o'qituvchi xattaxtaning o'ng tomoniga yozadi. Ana shu tarzda xattaxtada o'qilgan matnning rejasini hosil bo'ladi.

2. Matn qismlarini tahlil qilish jarayonida o'quvchilar o'qituvchi rahbarligida har bir qismdagi asosiy g'oyani aniqlaydilar va unga sarlavha topadilar, o'qituvchi sarlavhalarni reja tarzida xattaxtaga yozib boradi.

3. Qismlarga bo'linmagan matn tanlanadi, sarlavhalar matn rejasini tartibida xattaxtaga yoziladi. O'quvchilarga berilgan sarlavhalardan foydalanib, matnni qismlarga bo'lish topshiriladi. Ular matnni o'qishadi va sarlavhalarga tegishli qismni ajratadilar.

4. Qismlarga bo'linmagan matn tanlanadi, sarlavhalar aralash tarzda xattaxtaga yoziladi. O'quvchilarga yuqoridagidey qismlarga

"Metodist" 2025-yil 3-son

bo'lish topshiriladi. O'quvchilar matnni o'qib, nisbiy tugallangan qismni ajratadilar va unga mos sarlavhani xattaxtadan tanlaydilar. Ish shu tarzda davom ettirilib, matn rejasini tuziladi.

O'quvchilarda reja tuzish ko'nikmasi hosil bo'lgach, 3-, 4-sinflarda ular matnni mustaqil ravishda qismlarga bo'ladilar, har bir qismga reja tuzadilar. Rejani darak va atov gap tarzida shakllantiriladilar, unda har bir qism bir turdagi gaplar shaklida bo'lishi lozim.

Xulosa qilganda, o'quvchilarning adabiyotga bo'lgan qiziqishi va bilimini to'g'ri yo'naltirish, o'quv materialidagi asosiy va muhim jihatlarini ajrata olish ko'nikmalarini shakllantirishda ularni matn ustida ishlashga o'rgatish usullari muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Матжон, С. Мактабда адабиётдан мустақил ишлар. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – 208 б.


2. Матчинов С. Умумтаълим тизимida адабиётдан мустақил ишларни ташкил этиш. Пед. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 1996. – 308 б.

3. Зунтуннов А. ва бoshq. Adabiyot o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1992. – 332 b.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING MANTIQUIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHDA DIDAKTIK O'YINLAR VA O'YINCHOQLARDAN FOYDALANISH



Gauxar DJANPEISOVA,
Toshkent shahridagi Rossiya DPU filiali kafedra
mudiri, ped.f.n, professor. **El. manzil:**
gauxar.djanpeisova75@mail.ru



Gulhoyo ORTIQOVA
Qo'qon DU magistranti
El. manzil:
ortiqovagulhoyo51@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirishda didaktik o'yinlar va o'yinchoqlarning ahamiyati yoritilgan. Ilmiy-nazariy manbalar tahlili asosida didaktik o'yinlarning turlari, ularning sensorli va intellektual rivojlanishga ta'siri ko'rib chiqiladi. Shuningdek, bolalarda muammoli vaziyatlarni hal qilish, mantiqiy bog'lanishlarni topish, tahlil qilish kabi tafakkur amallarini shakllantirishda o'yin vositalarining pedagogik imkoniyatlari aniqlanadi. Maqolada ushbu yondashuvning amaliy samaradorligi, tarbiyachilar faoliyatida qo'llashga doir tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: mantiqiy tafakkur, didaktik o'yin, sensorli tarbiya, o'yinchoq, maktabgacha ta'lim, muammoli vaziyat, bolalar rivojlanishi.

Abstract. This article explores the role of didactic games and toys in developing logical thinking in preschool-aged children. Based on the analysis of theoretical sources, the paper discusses different types of didactic games and their impact on children's sensory and intellectual development. The pedagogical potential of games in shaping key cognitive skills such as analysis, comparison, identifying logical connections, and problem-solving is examined. The article also provides practical recommendations for preschool educators on implementing game-based learning strategies.

Keywords: logical thinking, didactic game, sensory education, toy, preschool education, problem-solving, child development.

Аннотация. В статье раскрыта роль дидактических игр и игрушек в развитии логического мышления у детей дошкольного возраста. На основе анализа научных источников рассмотрены виды дидактических игр, их

влияние на сенсорное и интеллектуальное развитие ребёнка. Выделены педагогические возможности игр в формировании таких мыслительных операций, как анализ, сравнение, поиск логических связей и решение проблемных ситуаций. В работе приведены рекомендации по эффективному применению игровых средств в образовательной практике педагогов дошкольных учреждений.

Ключевые слова: логическое мышление, дидактическая игра, сенсорное воспитание, игрушки, дошкольное образование, проблемная ситуация, развитие ребёнка.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim tizimida chuqur islohotlar amalga oshirilmoqda. Ta'lim sifatini oshirish, bolalarni har tomonlama kamol toptirish, jumladan, mantiqiy tafakkur, mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal qilishga o'rgatish kabi ko'nikmalarni shakllantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylangan.

Mamlakatimiz Prezidentining 2019-yil 8-apreldagi "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni (PQ-4312-son) da maktabgacha ta'lim sifatini oshirish, ta'lim jarayoniga innovatsion metod va texnologiyalarni joriy etish, tarbiyalanuvchilarning intellektual rivojlanishini ta'minlash bo'yicha qator vazifalar belgilab berilgan [1]. Ushbu hujjatda didaktik o'yinlar va sensorli faoliyat asosida mantiqiy fikrlashni shakllantirish alohida e'tirof etilgan.

Shuningdek, 2023–2026 yillar uchun ishlab chiqilgan "National Partnership Compact" dasturi doirasida (UNICEF, Jahon banki, O'zbekiston hukumati hamkorligida) maktabgacha ta'limda sifatli mazmuni joriy etish, tarbiyachilarni zamonaviy metodikalarga tayyorlash va innovatsion vositalarni o'quv jarayoniga kiritish bo'yicha strategik yo'nalishlar aniqlangan [2]. Mazkur dastur doirasida 11 dona hududiy pedagogik markaz tashkil etilgan bo'lib, bu orqali didaktik materiallar, konstruktiv o'yinlar, STEM yondashuvlariga asoslangan o'quv vositalarining joriy etilishi ko'zda tutilgan.

2024-yil oktabr oyida tasdiqlangan "Uzbekistan-2030" strategiyasida esa "ta'lim sifati – taraqqiyotning asosi" degan tamoyil asosida maktabgacha ta'lim tizimini xalqaro standartlarga

moslashtirish, bolalarning mantiqiy va ijodiy salohiyatini erta yoshdanoq rivojlantirishga alohida urg'u berilgan [3].

Ushbu islohotlar sharoitida maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlashda didaktik o'yinlar va sensorli o'yinchoqlardan foydalanish orqali mantiqiy tafakkurni shakllantirish dolzarb ilmiy-amaliy masala bo'lib qolmoqda. Bu esa mazkur tadqiqot mavzusining nazariy va amaliy ahamiyatini belgilaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun mantiqiy tafakkurni rivojlantirish ta'lim jarayonining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mantiqiy fikrlashning ilk bosqichlari aynan 3–6 yosh oralig'ida shakllanadi. Ushbu yoshdagi bolalar uchun o'yin faoliyati yetakchi faoliyat turi bo'lganligi sababli, didaktik o'yinlar va o'yinchoqlardan foydalanish ularning tafakkurini rivojlantirishda eng samarali usullardan biri sanaladi.

Didaktik o'yinlar bolaning faolligi, qiziqishi va mustaqil fikrlashini rag'batlantiradi. O'yinlar orqali bolaning sezgi, idrok, tahlil, solishtirish, umumlashtirish, xulosa chiqarish kabi fikrlash amallari faollashadi. Shuning uchun, bolalarning mantiqiy tafakkurini shakllantirishda didaktik vositalar asosiy o'rin tutadi.

Maktabgacha ta'lim jarayonida mantiqiy tafakkurni shakllantirishga xizmat qiluvchi didaktik o'yinlar ikki asosiy guruhga bo'linadi:

1. **Sensorli va tasniflovchi o'yinlar** — bolalarning idrok, sezgi va guruhlash ko'nikmalarini shakllantiradi (masalan, "Ortiqchani top", "Ranglar va shakllar", "Katta–kichik", "Qayerda yashiringan?").

2. **Mantiqiy-matematik o'yinlar** — raqamlar, tartib, o'xshashlik, ketma-ketlik, sabab-oqibatni tushunish asosida qurilgan (masalan, "Tangram", "Pentamino", "Kross o'yin", "Matematik piramida").

Didaktik o'yinchoqlar (blokklar, kubiklar, magnitli detallar, Dyenes shakllari va boshqalar) orqali bolalar o'z amaliy harakatlari davomida muammoli vaziyatlarni hal qilishni, solishtirish, tenglashtirish, ajratish kabi fikrlash operatsiyalarini bajarishni o'rganadilar. Ayniqsa, Montessori materiallari, LEGO-ta'lim tizimi, STEM yondashuvi asosidagi o'yinlar bolalarning mantiqiy fikrlashini chuqur va tizimli shakllantiradi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, didaktik o'yinlar orqali tashkil etilgan mashg'ulotlar bolaning mustaqil fikrlash qobiliyatini 30–40% ga oshiradi. Bundan tashqari, didaktik o'yinlar jamoaviy muloqotni, muammoli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilishni ham o'rgatadi.

Bolalar bilan mashg'ulot o'tkazish uchun didaktik o'yinchoqlarning besh xilini tavsiya etish mumkin. O'yinchoqlar konstruksiyalaridan o'yin harakatlarining xarakteri bo'yicha ular quyidagi turlarga bo'linadi:

1. **Ilib-kiygizib o'ynaladigan o'yinlar.**

Halqalar, butulkalar shuningdek, ustunchaga kiygizib qo'yish uchun mo'ljallangan, buning uchun maxsus teshigi bo'lgan sharlar, kublar, yarim shar shaklida yasalgan shakllar va boshqalar ana shunday o'yinchoqlar jumlasiga kiradi. Tarbiyachi bunday narsalarning bir guruhiga har xil piramidalarni to'plash mashg'ulotlaridan foydalanadi.

2. **Katta hajmli sharlar, kublar, prizmalar paralelogrammlar** va boshqa shunga o'xshash dumalatish, aylantirib o'ynash, idish ichiga tushirish va yana chiqarib olish, teshikchalarga-kataklarga joylashtirish, shuningdek, narsalarni ularning rangiga, hajmiga yoki shakliga qarab guruhlash va bir-biri bilan taqqoslash bo'yicha harakatlarni bajarish uchun mo'ljallangan geometrik figuralar didaktik o'yinlar jumlasiga kiradi.

3. **Geometrik shakllardan iborat.**

Geometrik shakllardan iborat bo'lgan didaktik o'yinchoqlar bilan mashg'ulot o'tkazishda foydalaniladi. Har xil rangdagi kublar, konuslar, silindrlar yarim doira shaklidagi figuralar, kublar, bir-birining ichiga kiygizib va bir-birining ustiga qo'yib o'ynash uchun mo'ljallangan o'yinchoqlar (bunda rangi, shakli va hajmiga qarab guruhlanadi) shular jumlasiga kiradi. Bular yordamida o'tkaziladigan mashg'ulotlar fazoda mo'ljal olish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

4. **Matreshkalar, bochkalar, tumchalar va boshqa shunga o'xshash qismga ajratiladigan va yana yig'iladigan didaktik o'yinlar va o'yinchoqlar.**

Bular bilan o'tkaziladigan mashg'ulotlar bolalarning tevarak-atroftida mo'ljal olish qobiliyatlarini rivojlantirishga, ikkita bir xil yoki ikkita har xil qismlardan tashkil topgan o'yinchoqlarni yig'ish ko'nikmasini o'stirishga yordam beradi. Bu o'yinchoqlar, shuningdek, ikki narsani bir-biriga tanishtirish uchun ham xizmat qiladi. Rangi yoki xajmi bo'yicha tanlab olingan bunday o'yinchoqlarni bir turdagi narsalarni guruhlash malakasini mustahkamlashda, shuningdek, ularni bir yoki bir nechta xususiyatlari bo'yicha bir-biriga taqqoslab o'rganishda foydalaniladi.

1. Uncha katta bo'lmagan syujetli o'yinchoqlar.

Bunga qo'g'irchoqlar, mashinalar, archalar, qo'ziqorinlar, pape-masheda tayyorlangan sabzavot, ho'l meva o'yinchoqlari, shuningdek, muayyan bir belgisiga qarab tanlangan narsalar kiradi.

Masalan: Tarbiyachi bolalarga har xil qutichalar, g'altaklar, vazalar, shuningdek, tabiatda mavjud bo'lgan materiallar-dub yong'oqlari, rangi, hajmi yoki shakliga qarab terib olingan katta-kichik barglarni taklif qilish mumkin.

Bola ikki yoshga qadam qo'ya boshlagan vaqtlarda diqqatni bitta o'yinga qaratib o'ynashga mos bo'lgan mashg'ulotlar o'tkaziladi. Bu yoshdagi bolalarni kichik narsani katta narsa ichiga joylashtirishga, sirti bir xilda tekis bo'lgan narsalarni bir-birining ustiga, ya'ni kattasining ustiga kichikinasini qo'yib taxlab chiqishga o'rgatiladi.

Sensor tarbiya pedagogika fanida bolalarning aqliy, estetik, jismoniy va mehnat tarbiyasining asosi hisoblanadi. Maktabgacha yosh davr sensor jarayonlarni rivojlantirish davridir. Shuning uchun bu davrda sensor tarbiya muhim o'rinni egallaydi. Sensor tarbiya hissiy bilish qobiliyatlarini shakllantirishga, sezgi, idrokni takomillashtirishga qaratilgan pedagogik ta'sir sistemasidir.

Mashg'ulotlarni tashkil etishda bolalarning hissiy bilish tajribasini egallab olishlari muhim rol o'ynaydi. Bolalarga narsa va hodisalarni idrok qilishga o'rgatib ularga qiladigan ishlarining ma'nosini aniq tushuntirib beriladi. Masalan, kubiklardan uycha yasashlarini so'raladi. Ular tushungan holda shakllarni idrok etib, uycha yasashga kirishishadi. Axir bola shakllarning xususiyatlarini bilmasa uycha yoki boshqa narsani yasay olmaydi.

Bola material bilan mustaqil munosabatda bo'lar ekan, turli xil malaka hosil qiladi. U o'z oldiga maqsad qo'yishni va unga erishish yo'llarini topishni o'rganadi. Materiallarning kuchli jalb etish xususiyati tufayli bolalarda narsalarga qiziqishi uyg'onadi. Materiallarga qiziqish va u bilan shug'ullanish natijasida vujudga kelgan quvonch tufayli bolada olamni o'zlashtirishga yordam beruvchi ichki sababiy asos paydo bo'ladi. Bola sensor o'yin, mashg'ulotlar orqali hatolarini o'zi topishni va ularni o'zi to'g'rilashni bilishi kerak. Shunda agar xatoga yo'l qo'ysa, uni tuzatadi va buzilgan tartib yana tiklanadi. Bu esa bolalarni aniq ish qilishga, ya'ni ischanlikka o'rgatishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, "Ajoyib xaltacha" nomli didaktik o'yin ham bolalarni predmetlarning rangi, shakli, hajmini farqlashga va ularni to'g'ri nomlashga o'rgatadi.

Mashg'ulot uchun jihozlar: xaltacha, o'yinchoq quyuncha, sabzi, bodring, olma, pomidor.

Mashg'ulotning borishi: tarbiyachi bolalarga gapiradi: - Bizning guruhimizga Ayiqcha mehmonga keldi. Uning qo'lida xaltachasi bor. Xaltachasida nima bor ekan? qahi ko'raylikchi, bu nima? (Sabzi) - deb xaltachadagi mevalarni galma-galdan oladi.

Sabzi qanday? (Uzun, qizil rangda)

Sabzini stol ustiga qo'yadi.

Bu nima? (Bodring). Bodring qanday? (Uzun, yashil rangda)

Bu nima? (Pomidor). Pomidor qanday? (Qizil, dum-dumaloq, sip-silliqlik, shar shakliga o'xshaydi)

Bu nima? (Olma). Olma qanday? (Sariq, dum-dumaloq, sip-silliqlik, shar shakliga o'xshaydi)

Ayiqcha sizlar bilan o'ynamoqchi. U hamma sabzavot va mevalarni xaltachaga berkitib qo'yibdi. Hozir u birma-bir sabzavot va mevalarni qo'lga olib uning tuzilishi haqida gapiradi. Biz esa gap qaysi meva va sabzavotga tegishli ekanligini topamiz.

Diqqat bilan quyunchaning gaplarini tinglaymiz.

- Uzun, qizil rangda. Bu nima? (Sabzi)

Quyuncha xaltachadan sabzini oladi.

- U uzun, yashil rangda. Bu nima? (Bodring)

- U dum-dumaloq, sip-silliqlik, shar shakliga o'xshaydi, sariq rangda. Bu nima? (Olma)

- U dum-dumaloq, sip-silliqlik, shar shakliga o'xshaydi, qizil rangda. Bu nima? (Pomidor)

Barakalla bolalar! Bizning guruhimizga mehmonga kelganing uchun, Ayiqcha, senga rahmat, xayr.

"Katta-kichik predmetlar"

Mashg'ulotning maqsadi: bolalarni predmetlarning hajmi, rangi haqidagi tasavvurlarini o'stirish, lug'atlarini boyitish, qisqa jumalar tuzib gapirishga o'rgatish.

Predmetlarning shakli va hajmini rasmlarda o'rgatishdan oldin tarbiyachi "Shakl" va "Hajm"ni bilishga oid bir nechta mashg'ulotlarni o'tkazgan bo'lishi lozim.

Mashg'ulotning borishi: tarbiyachi bolalarga 2 juft katta va kichik predmetlar tasvirlangan rasmlarni ko'rsatadi (olma, ayiqcha, koptok) va aytadi: "Bu katta ayiqcha, mana bunisi esa kichik ayiqcha. Mana bu katta koptok, mana bunisi esa kichik koptok".

So'ng bolalarga katta va kichik predmetlarni ko'rsatishni va nomini qaytarishni taklif etadi. Xuddi shu usulda tarbiyachi bolalarni predmetlarning rangi va shaklini bilishga o'rgatishda ham mashg'ulot tashkil etish mumkin.

"Sharchalarni tutamiz".

Mashg'ulotning maqsadi: bolalarni suvdagi sharchalarni cho'mich bilan olishga o'rgatish, bitta va ko'pni farqlashni o'rgatish, ularda xotirjamlik va diqqatni rivojlantirish.

Mashg'ulot uchun jihozlar: plastmassali shaffof banka, sharchalar, kichik cho'michlar.

Mashg'ulotning borishi: tarbiyachi uch-to'rt bolani stol atrofiga taklif qiladi va ularning diqqatini stol ustidagi suv solingan shaffof bankaga qaratadi. Tarbiyachi gapiradi: "Bankadagi suvga bitta sharcha tushib ketdi, banka ichida nechta sharcha bor? (bitta), hozir men uni suvdan olaman", - deb cho'mich yordamida sharchani banka ichidan oladi. So'ng bir nechta sharchalarni oladi va aytadi: "Qaranglar bolalar, mana bu yerda sharchalar ko'p ekan, har biringiz olib uni bankadagi suvga soling, bankada sharchalar qancha bo'ldi?(ko'p)"

- Endi cho'mich yordamida sharchalarni suvdan oling. Barakalla. Bolalar men nechta sharchani suvdan oldim?

- Sizlar qancha sharchani suvdan oldingiz?

Tarbiyachi mashg'ulot davomida bolalar shovqin qilmasdan, suvni sachratmasdan o'ynash kerakligini eslatadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirishda didaktik o'yinlar va o'yinchoqlarning o'rni beqiyosdir. Bu o'yinlar bolalarda kuzatuvchanlik, tahlil qilish, solishtirish, umumlashtirish va xulosa chiqarish kabi muhim fikrlash jarayonlarini shakllantiradi. Mantiqiy fikrlash qobiliyatining poydevori aynan maktabgacha davrda qo'yilishi sababli, ushbu yosh bosqichida didaktik vositalardan maqsadli va ilmiy asoslangan foydalanish ta'limning keyingi bosqichlarida yuqori natijalarga erishishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-apreldagi PQ-4312-son Farmoni "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasi".

2. UNICEF Uzbekistan. National Partnership Compact (2023–2026).

3. Aromshtan M., Baranova O. Spatial geometry for kids. The Adventures of Eraser and Paperclip. Educational classes. – M.: NC ENAS, 2004. – 96c.

4. Arkhipova I.A. Preparing a child for school.: Book for parents of a future first-grader. – Yekaterinburg: U – Factory, 2004. – 215 p.

5. Дубоиница Н.А. Развитие логического мышления дошкольников посредством дидактических игр // Педагогика и образование. — 2025.

6. Орлова И.А. Дидактические игры как инструмент сенсорного развития детей младшего дошкольного возраста // Дошкольное воспитание. — 2024.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA MANTIQUIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHGA SENSORLI TA'LIMNING TA'SIRI



Gauhar DJANPEISOVA,
Toshkent shahridagi Rossiya DPU
filiali kafedra mudiri, ped.f.n,
professor. **El manzil:**
gauhar_djanpeisova75@mail.ru



Sevinch MAXMUDOVA,
Toshkent shahridagi Rossiya DPU filiali
talabasi. **El manzil:**
Sevinch83282001@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda mantiqiy fikrlashni shakllantirish jarayonida sensorli ta'limning o'zni yoritilgan. Sensorli ta'lim bolalarning idrok, tafakkur va tahliliy fikrlash faoliyatini faollashtiradi. Maqolada sensorli faoliyat orqali mantiqiy tafakkurning asosiy komponentlari — taqqoslash, umumlashtirish, guruhlash, tahlil qilish va xulosa chiqarish kabi ko'nikmalarni rivojlantirishga oid metodik yondashuvlar bayon qilingan. Eksperimental kuzatuvlar asosida bolalarning kognitiv rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi metodik vositalar tavsiya etiladi.

Kalit so'zlar: mantiqiy fikrlash, maktabgacha yosh, sensorli ta'lim, sezgi, idrok, metodika, tahlil, o'yinli faoliyat.

Abstract. This article explores the role of sensory education in developing logical thinking among preschool-aged children. Sensory activities stimulate perception, thinking, and analytical reasoning. The paper outlines methodological approaches to enhance key components of logical thinking—such as comparison, generalization, classification, analysis, and inference—through sensory-based tasks. Based on experimental observations, the study recommends practical tools that contribute to the cognitive development of young learners.

Keywords: logical thinking, preschool age, sensory education, perception, methodology, analysis, cognitive development.

Аннотация. В статье рассматривается роль сенсорного обучения в формировании логического мышления у детей дошкольного возраста. Сенсорные методы активизируют процессы восприятия, мышления и аналитической деятельности ребенка. Представлены методические подходы к развитию таких компонентов логического мышления, как сравнение, обобщение, классификация, анализ и умозаключение посредством сенсорной деятельности. На основе экспериментальных наблюдений даны практические рекомендации по использованию эффективных методик для когнитивного развития дошкольников.

Ключевые слова: логическое мышление, дошкольный возраст, сенсорное обучение, восприятие, методика, анализ, познавательная активность.

Zamonaviy ta'lim jarayoni bolalarning mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarda oqilona qaror qabul qilish va mantiqiy mulohaza yuritish ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilmoqda. Ayniqsa, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun bu jarayon sezgi va idrok orqali boshlanadi. Shu nuqtai nazardan qaralganda sensorli ta'lim bolalarda mantiqiy tafakkurning shakllantirishda asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Sensorli ta'lim – bu bolaning atrof-muhitni his qilish, ajratish, solishtirish, tartiblash kabi sezgi orqali idrok etish faoliyatiga asoslangan o'qitish usulidir. Aynan ana shu faoliyatlar orqali bola tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish kabi mantiqiy operatsiyalarni o'zlashtira boshlaydi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sensorli faoliyatlar bilan boyitilgan mashg'ulotlar bolalarning tafakkurini faollashtirib, ularni fikrlashga yo'naltiradi.

Hozirgi kunda ta'limning uzluksizligi va bosqichma-bosqich rivojlanishi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Maktabgacha davrda mantiqiy fikrlashni shakllantirish – bola intellektining keyingi rivojlanishiga mustahkam zamin yaratadi. Shu sababli, sensorli ta'lim imkoniyatlaridan foydalanish orqali bolalarda tafakkurning shakllanishiga metodik jihatdan yondashish zamonaviy pedagogikaning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Mazkur tadqiqotda sensorli ta'lim vositalari orqali maktabgacha yoshdagi bolalarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirish mexanizmlari tahlil qilinadi. Bu jarayonda qo'llanilayotgan o'yinli mashg'ulotlar, ko'rgazmali vositalar, sensorli materiallar va

didaktik yondashuvlar amaliy asosda o'rganilib, ularning samaradorligi aniqlanadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kichik yoshdagi guruh bolalariga sensor tarbiya berish davom etadi. Sensor tarbiyaga oid o'yin va mashg'ulotlar tashkil etiladi. Tevarak atrofdagi borliqni bilish, sezish va idrokka asoslanadi. Tasavvurning asosini bevosita sezish idrok qilishni tashkil etadi.

Sensor tarbiya sezgi va idrokni biror maqsadga qaratilgan holda rivojlantirishdir. "Sensor" so'zi lotincha "sensus"- tuyg'u, sezgi, idrok, qobiliyati ma'nolarini anglatadi. Borliqni bilish idrok qilishdan boshlanadi. Inson ko'rish, sezish va boshqalar yordamida tevarak-atrofdagi narsa va hodisalar to'g'risida bilimga ega bo'ladi, shular asosidagina unda xotira, tafakkur, hayol kabi jarayonlar sodir bo'ladi.

Sezgi va idrok qanchalik boy bo'lsa, insonning tevarak-atrofdagi olam tasvurlari shunchalik keng bo'ladi. Bolalarning sensor madaniyati, unda sezgi va uning rivojlanish darajasi, bilish faoliyati uchun muhim shart-sharoit hisoblanadi. Sensor tarbiya pedagogika fanida bolalarning estetik, jismoniy va mehnat tarbiyasining asosi maktabgacha yosh davr sensor jarayonlar davridir. Shuning uchun bu davrda sensorika muhim o'rinni egallaydi. Sensor tarbiya hissiy bilish qobiliyatlarini shakllantirishga, sezgi, idrokni takomillashtirishga qaratilgan pedagogik ta'sir sistemasidir.

Sensor tarbiyaning mazmuni va metodi ruخشunoslik fanida idrok va sezgini rivojlantirish muammosi qanday talqin qilinishi bilan belgilanadi. Bu muammo fanda turlicha hal etilgan bo'lib pedagogika tarixida sensor tarbiyaning har xil sistemasi mavjud.

Taniqli pedagog va ruخشunos olimlar (F. Frebel, M. Montessori, O. Dekrali va boshqalar) sensor tarbiyaning xilma-xil faoliyati turlari jarayonida, faoliyatning tasviriy-amaliy, musiqali harakat turlarida bolalarni tevarak-atrof bilan tanishtirishda amalga oshirish kerakligi to'g'risidagi yangi tizimni yaratdilar va mazkur tizimning mazmuni, metod va nazariyasini ishlab chiqdilar. Sensor rivojlanish bu yoshdagi bolalarda narsalar bilan qilinadigan faoliyat jarayonida, turli buyumlar bilan bajariladigan ish-harakatlarda kelib chiqadi. Birorta belgisi bilan keskin farq

qiladigan, masalan: rangi bir xil bo'lgani bilan katta-kichikligi har xil bo'lgan koptok, sharchalarni yoki katta-kichikligi bir xil bo'lgan, rangi har xil quitchalarni, turli materialdan – gazlama, rezinka, yog'ochdan yasalgan ayiqchalar, qo'g'irchoqlar va boshqa o'yinchoqlarni tanlab olish kerak. Buyum va uning xossalari xilma-xil bo'lishi bolalarning diqqatini jalb etadi, belgilarning farqi hamda o'xshashligini bo'rttirib, idrokni chuqurlashtiradi va oydinlashtiradi.

Bolalar o'z faoliyatida buyumlarning har xil belgilariga qarab ish tuta boshlaydi, masalan: matryoshkalarni birining ichiga ikkinchisini joylashda katta-kichikligiga qarab to'g'ri tanlaydi, sharchani dumaloq teshikka to'g'ri joylaydi va hokazo. Mashg'ulotlarning mazmuni asta-sekin murakkablashtirib boriladi. Masalan, piramidaning xalqalarini bola avval chiqarib olish va joyiga kiygazib qo'yishga o'rgatiladi. So'ngra bolalarni xalqalarning katta-kichikligini ajratishga, avval katta xalqalarni, keyin esa kichik xalqalarni kiygazishga o'rgatish kerak bo'ladi. Turli xil predmetlar bilan shug'ullanish asosida uch yoshga to'layotgah bolada miqdor haqidagi tasavvur shakllana boshlaydi. Bunda bolalarga "ko'p", "bitta", "hech ham yo'q" tushunchalari beriladi.

Kichik yosh guruh bolalariga tarbiyachi mashg'ulot davomida savollar berib boradi. Agar bolalar savollarga javob berishga qiynalsalar tarbiyachi o'zi javob namunasini beradi. Sensor tarbiya hamda narsalar bilan bajariladigan harakatlarni rivojlantirish uchun bolalarga rang-barang xususiyatlarga ega bo'lgan o'yinchoqlar beriladi. Katta yoshli kishi bolalarning e'tiborini yangi o'yinchoqlarning sifatiga, uning shakliga, rangiga qaratadi.

Ularning mana shu o'yinchoqlarga qarab yangi tovushlar chiqarishga mustaqil ravishda o'rganayotganliklarini qo'llab-quvvatlaydi. Bolani narsalarni shakli, fizik xususiyatlariga ko'ra biri-biri bilan taqqoslashga o'rgatib borish, to muayyan bir natijaga erishilmaguncha harakatlarni davom ettiraverish lozim. Masalan, "Matryoshka" qo'g'irchoq'ini ochish va yana yopib qo'yishni, erkin ravishda olinadigan halqalarni ustunchadan chiqarib olish va uni yana joyiga qo'yib tahlal chiqish kerak.

Bola bir o'yinchoqni o'ynab o'tirib yangidan o'zlashtirib olgan xatti-harakatni boshqa o'yinchoqlarni o'ynagan vaqtda ham

mustaqil ravishda takrorlashga erishishi zarur. Bu bolaning yangi harakat usulini yaxshiroq o'zlashtirib va umumlashtirib olishga yordam beradi. Bolaning qo'liga har xil materialdan yasalgan rangli, shakli, chiqaradigan tovushi turlicha bo'lgan bir turdagi o'yinchoqlarni berib qo'yish kerak.

Masalan, bolalar yumalatib o'ynashi mumkin bo'lgan plastmassa, yog'och shariklar, rezina koptoklar, yumshoq matodan yasalgan koptokchalarni, rangi va shakli har xil bo'lgan kubiklar ana shunday o'yinchoqlardan hisoblanadi, ulardan bolalar "minorat" yasashlari mumkin.

Bunday predmetli o'yin faoliyati davomida bolaning ko'rib harakat qilish tafakkuri rivojlanib boradi. Harakat usullarining umumiy lashtirilishi o'sha ishlari so'zlar yordamida umumiy lashtirish uchun zamin yaratadi.

Katta yoshli kishilar bola bilan o'ynayotganida unga narsalarning nimaga ishlatilishini va ulardan qanday foydalanishni ko'rsatish kerak. Bolalarga yoqimli ovozlari, ohanglar chiqaradigan hamda bolaning o'zi burab yurgiza oladigan mexanik o'yinchoqlarni berish kerak. Masalan: Korobkani ochib va yopib o'ynayotganda yoki sharchalarni to'playotganida va joylashtirayotganida, piramida halqachalarini ustma-ust kiygizayotganida bola buni o'zlashtirib oladi. U narsaning xususiyatini (katta-kichik, qattiq-yumshoq, yengil-og'ir), (bitta, ko'p, oz), (shar, kub, doira, xalqa) amaliy ravishda bilib oladi.

Turli kattalikdagi munchoqlarni ipga terish. 10ta munchoqdan iborat munchoqlar to'plami: 2sm diametrli beshita; 1sm diametrli beshita munchoqlar va leska.

Bolalarga leskaga munchoqlarni ketma-ketlikda terishni taklif eting: katta-kichik va yana katta-kichik. Bolaga ketma-ketlikda munchoqlarni leskaga terishda ko'maklashing, so'z bilan ketma-ketlikni gapirib turing. Avval katta munchoq keyin kichik munchoq va yana katta munchoq endi kichik munchoq.

Mashg'ulotning nomi: kichik guruh yoshidagi bolalarini tevarak atrofida mo'ljall olish tasavvurlarini shakllantirish.

Maqsad: bolalarni o'ng va chap tomonlarni farqlashga, ranglarni ajratishga o'rgatish.

Kerakli jihozlar: namoyish qiluvchi materiallarga qizil va ko'k rang ro'molcha 3 ta matryo'shka va 3 ta piramida. Tarqatma materiallar, qizil va yashil rangda qog'ozlar har bir bolaga 3 tadan archa va 3 tadan qo'ziqorin o'yinchoqlari.

Mashg'ulotning borishi: tarbiyachi bolalarga murojaat qilib, shunday deydi: Bolalar, qaranglar, stol ustida ko'p matryo'shka va piramida o'yinchoqlari turibdi.

Mana bu yerda esa qizil rangli ro'molcha va ko'k rangdagi ro'molcha bor. Qizil ro'molcha mening o'ng tomonimda, ko'k ro'molcha esa mening chap tomonimda turibdi. Hozir biz sizlar bilan o'ng tomondagi qizil ro'molcha ustiga matryo'shkalarni, chap tomondagi ko'k ro'molchalar ustiga esa piramidalarni qo'yib chiqamiz.

Avval menga o'ng qo'lingizni ko'rsating?

Agar biror bola yanglishib chap qo'lini ko'tarsa, tarbiyachi unga qoshiq ushlaydigan qo'limiz o'ng qo'l, deb eslatadi. U chap qo'lini ko'targan bolalar yoniga borib, ko'rsatadi: "Mana, bu sening o'ng qo'ling, bunisi esa chap qo'ling!"

Qani endi ishini boshlaymiz – deb tarbiyachi bolalar bilan o'ng tomondagi qizil ro'molcha ustiga matryo'shkalarni, chap tomondagi ko'k ro'molcha ustiga piramidalarni qo'yib chiqishadi.

Ana endi bolajonlar stolingiz ustida turgan qizil rangli qog'oz ustiga qo'ziqorinlarni, chap tomoningizda turgan yashil qog'oz ustiga archalarni qo'yib chiqamiz. Avval bolajonlar o'ng qo'lingizni stolingiz ustida turgan qizil qog'oz ustiga qo'ying, chap qo'lingizni yashil qog'oz ustiga qo'ying. Demak, qizil qog'oz sizning o'ng tomoningizda, yashil qog'oz esa chap tomoningizda turibdi.

Ana endi qo'ziqorinlarni o'ng tomoningizda turgan qizil qog'oz ustiga, archalarni esa chap tomoningizda turgan yashil qog'oz ustiga qo'yib chiqing. Mashg'ulot davomida tarbiyachi qiyalayotgan bolalarga yordamlashadi, savollar berib boradi. Agar bolalar javob qaytarishga qiyalsalar, tarbiyachi o'zi javob namunasini berishi kerak. Tarbiyachi bolalarni to'g'ri ish bajarganliklari uchun maqtaydi.

Tadqiqot Toshkent viloyatidagi 3 ta maktabgacha ta'lim tashkilotida 5–6 yoshli bolalar ishtirokida olib borildi. Eksperiment ikki bosqichda tashkil etildi: Diagnostik bosqichda bolalarning

boshlang'ich mantiqiy fikrlash darajasi aniqlanib, quyidagi mezonlar baholandi: solishtira olish, guruhlay olish (klassifikatsiya), tahlil va umumlashtira olish, ketma-ketlikni tushunish, sabab-oqibatni ajratish.

Baholashda "Raven" testi, "Qaysi ortiqcha?" testi, sensorli kublar, tangramlar va Montessori materiallari asosida topshiriqlar qo'llanildi. Eksperimental bosqichda 3 oy davomida maxsus sensorli ta'lim dasturi asosida mashg'ulotlar olib borildi. Dastur quyidagilarni o'z ichiga oldi: sensorli o'yinlar (masalan, "turtib ko'r – top", "ko'z bog'lab sez"), grafik o'xshatmalar (figuralar bilan ishlash), matematik bloklar bilan tajriba (Dyenesht bloklari), tushunchalarni solishtirish (shakl, rang, og'irlik, uzunlik), didaktik materiallar (qarama-qarshi juftliklar, sababli voqealar zanjiri).

Mashg'ulotlar jarayonida bolalarning mustaqil fikrlashi, savol berish faolligi va mantiqiy tahlilga qiziqishi sezilarli oshdi.

Tavsiyalar:

1. Sensorli ta'lim elementlarini maktabgacha ta'lim dasturiga integratsiyalash tavsiya etiladi. Jumladan, har bir mavzuga sensor asosdagi topshiriqlar qo'shilishi lozim.

2. Montessori metodikasi, Dyenesht bloklari, tangram, pentamino kabi sensorli va mantiqiy materiallardan foydalanishni tizimli tashkil etish zarur.

3. O'yinli faoliyat bilan birga fikrlashga yo'naltirilgan suhbatlar va savol-javobli topshiriqlardan muntazam foydalanish tavsiya qilinadi.

4. Tarbiyachilar uchun metodik qo'llanmalar va seminar-treninglar tashkil qilish orqali sensorli ta'limni amalga oshirish kompetensiyasini oshirish zarur.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, sensorli ta'lim vositalari bolalarda mantiqiy fikrlashni shakllantirishda samarali vosita hisoblanadi. Bolalar sezgi orqali atrofidagi ob'ektlar haqidagi axborotni olish, solishtirish, umumlashtirish va sabab-oqibat bog'lanishlarini anglash imkoniyatiga ega bo'ladi. Tajriba davomida ishtirokchi bolalarning mantiqiy xulosalash darajasi va mustaqil fikrlash ko'nikmalari 35–40% ga oshgani kuzatildi.

Sensorli ta'lim – bu faqat sezgilarni emas, balki tafakkurni faol ishlashga yo'naltirilgan texnologiya bo'lib, u bolalarning

intellektual rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Maktabgacha yosh – bu mantiqiy fikrlashning asoslari shakllanadigan davr bo'lib, aynan shu bosqichda sensorli faoliyat asosida qurilgan ta'lim metodi kelajakdagi ta'lim bosqichlarida yuqori natijalar berishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Закон "О дошкольном образовании и воспитании" Республики Узбекистан Принят Законодательной палатой 22 октября 2019 года. Одобрен Сенатом 14 декабря 2019 года. (Национальная база данных законодательства, 17.12.2019 г., № 03/19/595/4160; 27.04.2021 г., № 03/21/685/0373, 12.10.2021 г., № 03/21/721/0952)
2. Государственная учебная программа дошкольного образовательного учреждения «Илк кадам» [Электронный ресурс]: Программа утверждена решением коллегии МДО Республики Узбекистан (Протокол № 4 от 7 июля 2018 г.)
3. Asgarova D. Q. Maktabgacha yoshdagi bolalarni mantiqiy fikrlashini rivojlantirishda montessori metodikasidan foydalanish // TADQIQOTLAR jahon ilmiy-metodik jurnali. — 2025. — 59(3). — S. 157–159.
4. Dosbayeva Sh. A. Mantiqiy fikrlash mashg'ulotlarining didaktik ta'minotini takomillashtirish // FDU Ilmiy xabarlar jurnali. — 2024. — № 30(3). — S. 195.
5. Блонский П. П. Память и мышление: психология мышления у ребёнка. — М.: Просвещение, 2004. — 256 с.
6. Журова Е.Ю. Сенсорное развитие детей дошкольного возраста: теория и практика: учеб. пособие. — М.: Академия, 2019. — 128 с.

ADABIY TA'LIMDA AVAZ O'TAR IJODINI O'RGANISH
"Fidoiy xalqim", "Ona tilim" she'rlari misolida



Dilrabo SAGATOVA,
UrDU Pedagogika kafedrası tayanch doktoranti.
El. manzil: dilrabosagatova06@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada adabiyot darslarida Avaz O'tar ijodini zamonaviy metodlar asosida o'qitish yo'llari "Fidoiy xalqim" va "Ona tilim" she'rlari misolida tahlil qilingan. Mazkur maqolada shoirning poetik merosi, estetik-falsafiy qarashlari tahlil qilinadi hamda ularni umumta'lim maktablarida o'qitishning samarali usullari ko'rsatiladi.

Kaliit so'zlar: adabiy ta'lim, klaster usuli, INSERT texnologiyasi, dialogik o'qish, estetik tarbiya, vatanparvarlik, ma'naviy qadriyatlar.

Abstract. The article analyzes the ways of teaching Avaz O'tar's work in literature lessons based on modern methods using the example of the poems "Fidoiy xalqim" and "Ona tilim". This article analyzes the poet's poetic heritage, aesthetic and philosophical views, and shows effective methods for teaching them in secondary schools.

Keywords: literary education, cluster method, INSERT technology, dialogic reading, aesthetic education, patriotism, spiritual values.

Аннотация. В статье анализируются способы преподавания творчества Аваз Отара на уроках литературы по современным методикам на примере поэм «Фидойи халқим» и «Она тилим». В статье анализируется поэтическое наследие, эстетические и философские взгляды поэта, а также показаны эффективные методы их преподавания в средних школах.

Ключевые слова: литературное образование, кластерный метод, технология INSERT, диалогическое чтение, эстетическое воспитание, патриотизм, духовные ценности.

Xorazm adabiy muhitining yirik vakillaridan biri Avar O'tar ijodi o'zbek adabiyoti tarixida o'ziga xos uslubi, yuksak badiiylilik va

chuqur ma'naviy-falsafiy mazmuni bilan ajralib turadi. Uning ijodi, ayniqsa, Xorazm adabiy muhitining boy an'analari va zamonaviy talqinlari uyg'unligining yorqin namunasi sifatida qadrlanadi, shu boisdan Avaz O'tar ijodini o'rganish va uni maktab o'quvchilari ongiga singdirish o'ziga xos dolzarb ilmiy-pedagogik masala sifatida qaraladi.

Xorazm adabiy muhitining yorqin namoyandasi Avaz O'tar Xorazmda shakllangan boy adabiy an'analarni davom ettirgan va ularni zamonaviy ruhda boyitgan ijodkordir. Adabiyotshnos Ibrohim Haqqul shoirga shunday ta'rif beradi "Avaz she'riyati an'anaviy adabiyot bilan yangi o'zbek she'riyati orasida mustahkam bir ko'priki vazifasini o'tagan, desa xato bo'lmaydi" [5;10-b].

Darhaqiqat, Avaz O'tar she'rlari xalqona ruhda, sodda, ammo teran ma'no kasb etuvchi ifodalar bilan boyitilgan. Shoir lirikasi insoniylik, mehr-oqibat, vatanparvarlik, ma'naviyat, muhabbat singari umumbashariy qadriyatlarni tarannum etadi. Ayniqsa, ona tiliga, milliy urf-odatlariga sadoqat Avaz O'tar ijodining bosh g'oyalardan biridir. Su bois ham uning asarlari uzoq yillardan beri maktab dastur va darsliklaridan joy olib keladi. Chunki Avaz O'tar asarlarini o'qitish orqali o'quvchilarda yurtga muhabbat, til o'rganish kabi g'oyalar tarannum etiladi vas hu orqali o'quvchilarda ma'naviy yetuklik, mustaqil fikrlash va badiiy tafakkur ko'nikmalarini shakllantiriladi.

Adabiy ta'limda Avaz O'tar ijodini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va innovatsion metodik yondashuvlardan samarali foydalanish talab qilinadi.

O'quvchilarning qiziqishini oshirish, ularning mustaqil fikrlash, tahlil qilish va badiiy-estetik zavq olish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun interfaol usullar, klaster, insert, aqliy hujum, o'yinlar, guruhlarda ishlash kabi metodlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, raqamli resurslar, vizual vositalar, multimedia taqdimotlari, virtual ekskursiyalar orqali Avaz O'tar asarlarining g'oya va mazmunini yanada chuqurroq ochib berish mumkin.

Avaz O'tar ijodi 6-sinf Adabiyot darsligida o'z aksini topgan bo'lib, o'quvchilarga yozuvchining til boyligi, obrazlar dunyosi,

hayotiylik va badiiy ifoda uslubi orqali estetik tarbiya berish imkoniyati mavjud. Darslarda ijodiy yondashuv, tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan topshiriqlar, muammoli savollar, esse yozish, bahsli munozaralar tashkil qilish orqali o'quvchilarni faollikka chorlash mumkin.

Xususan:

Klaster usuli orqali she'r mazmunini tahlil qilish;

"INSERT" texnologiyasi yordamida o'quvchining o'qigan matn asosida fikr bildirishini rivojlantirish;

Dialogik o'qitish asosida o'quvchilarning mustaqil fikrlashiga turtki berish;

Rolli o'yinlar (dramatizatsiya) orqali badiiy matnni his etish;

She'riy bahslar tashkil qilish orqali o'quvchilarning badiiy nutqini rivojlantirish.

Klaster usuli. Klaster (ingliz tilidan "cluster" – to'plam, guruh) usuli o'quvchilarga matndagi asosiy tushunchalarni markazlashtirilgan grafik modelda ifodalash, bu tushunchalarning o'zaro semantik va g'oyaviy aloqadorligini aniqlash imkonini beradi. Klaster orqali o'quvchi she'rning faqat mazmunini emas, balki semantik strukturasi ham anglab boradi. Zamonaviy adabiy ta'lim jarayonida o'quvchilarda tanqidiy va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish, ularning badiiy matnni chuqur anglashiga yo'naltirilgan metodik yondashuvlarni qo'llash dolzarb vazifalardan biridir. Shu jihatdan klaster usuli o'zining interaktivlik, vizual ifodalilik va umumiy bog'liqlikni ochib berish imkoniyati bilan ajralib turadi. Ayniqsa, she'riy matn tahlilida bu metod yuqori natijadorlikka ega bo'lib, o'quvchilarni matnning ichki qatlamlarini idrok etishga undaydi [2;115-b].

Didaktik nuqtai nazardan, bu usul quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

Asosiy g'oyani ajratish va strukturaviy tahlil qilish;

Tushunchalararo semantik aloqadorlikni izohlash;

Ijodiy tafakkur va assotsiativ fikrlashni rivojlantirish;

Shaxsiy munosabat va mulohazalarni shakllantirish.

Avaz O'tarning "Ona tilim" she'rida ona tiliga bo'lgan muhabbat, ilm olish, til o'rganish hamda vatanga muhabbat

tushunchalari uyg'un tarzda ifodalangan. Quyidagi misralar klaster tuzishda markaziy nuqtadir:

"Ona tilim – jonim tilim, Yuragimda yonsin ilmim"[1; 74-b].

Bu satrlarda asosiy semantik markaz sifatida "ona tili" tushunchasi ajraladi. U bilan "jon", "yurak", "ilm", "el", "vatan" kabi tushunchalar bog'liq. Klaster quyidagicha tuziladi.

ILM
|
YURAK – TIL – VATAN
|
EL

Bu tahlil orqali o'quvchi tilning faqat aloqa vositasi emas, balki milliy o'zlik, ma'naviyat va ma'rifatning asosiy timsoli ekanini anglashiladi.

"Tilim mening – o'zligimning yuragi" she'rining klaster tahlili

"Tilim mening – o'zligimning yuragi, U yurakda yashar xalqning qudrati". Bu misralarda "til" – o'zlikni anglash markaziy timsoli. U bilan "yurak", "xalq", "qudrat" tushunchalari bog'lanadi:

QUDRAT
|
XALQ – TIL – O'ZLIK
|
YURAK

She'rda til xalq qalbining timsoli sifatida talqin qilinadi. O'quvchilar bu tahlil orqali milliy o'zlik va ruhiy birlikning mohiyatini tushunadilar.

"Har tilni biluv..." she'rining klaster asosida tahlili

Bu she'rda ko'p tillilik, ilm, hunar va zamon talablari masalasi ko'tarilgan. Quyidagi klaster asosiy tushunchalarni umumlashtiradi:

ILM – FAN
|
HUNAR – TIL – G'AYRAT – YOSHLAR
|
ONA TILI – ZAMON – FOIDA

Bu yerda til – ilm, hunar, zamon bilan bog'liq; yoshlar esa g'ayrat bilan uni o'zlashtirishi kerakligi ta'kidlanadi. Shoirning til bilmaslikdan ko'rgan iztiroblari esa bu klasterning emotsional qatlamini tashkil qiladi.

Klaster usuli orqali she'riy matnni tahlil qilish o'quvchilarning fikr yuritish, tushunchaviy tahlil qilish, va matnga individual yondashuv ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bu usul orqali o'quvchilar she'ri nafaqat obrazli, balki semantik va g'oyaviy qatlamlarda ham angelaydilar. Avaz O'tarning she'rlari esa til, ilm, vatan va o'zlik kabi tushunchalarni chuqur tahlil qilish uchun boy material bo'lib xizmat qiladi.

"INSERT" texnologiyasi yordamida o'quvchining o'qigan matn asosida fikr bildirishini rivojlantirish ko'zda tutiladi. "INSERT" texnologiyasida o'quvchilar matnni muayyan belgilar (belgilashlar: + - ? !) [4:3-b] yordamida o'qir ekan, u bilan bevosita muloqotga kirish imkoniyatiga ham ega bo'ladi: "Do'stlarim bo'sin desang ahli jahon, xulqi xushlukni qil odat, ey Avaz". Jumladan, "Ey Avaz" radifli g'azal [1; 78-b] namunasida ham ana shu an'anaviy pandnoma janrining yuksak namunasi ko'zga tashlanadi. She'rda muallif Avaz nomi orqali ehtimol o'zini nazarda tutadi, lekin bu timsol kengroq ma'no kasb etib, har bir insonning ma'naviy hayoti, uning jamiyatdagi o'rni va axloqiy mas'uliyatiga daxldor qarashlar timsoliga aylantiriladi. G'azalda ilgari surilgan asosiy g'oya insonning komillikka intilishi, jamiyatda chin inson maqomiga erishishida axloqiy sifatlarining muhim o'rni borligi haqidadir. *"Do'stlarim bo'sin desang ahli jahon, xulqi xushlukni qil odat, ey Avaz"* misrasida insoniylikning poydevori xushfe'llik, muomala madaniyati bilan bog'lanadi. Bu yerda adib jamiyatga moslashishning, ijtimoiy hurmat topishning muhim sharti sifatida axloqiy odobni ilgari suradi. Keyingi baytlarda esa do'stlikda sadoqat, odamlar bilan muomala qilishda vafodorlik, g'iybat va hasad kabi illatlardan yiroq bo'lish kabi tushunchalar davom ettiriladi. Ayniqsa, *"Senda bor ersa agar rasmi vafo, ko'rmag'ung juz javr-u kulfat, ey Avaz"* degan satrda vafodorlik hayotda kulfatlardan asrovchi, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlovchi vosita sifatida talqin

etiladi. Mazkur she'riy asarni adabiyot darslarida o'qitishda "INSERT" texnologiyasi imkoniyatlaridan foydalanish ayni muddaodir. Bu texnologiya o'quvchining matn bilan faol ishlashiga, uni izchil tahlil qilishga va eng muhimi, shaxsiy munosabat bildirishga undaydi. Dastlabki bosqichda o'quvchi she'r g'oyasini anglashga urinadi, so'ngra undagi yangi, ilgari o'rganilmagan axborotlarni aniqlaydi. Keyinchalik esa, bu ma'lumotlar asosida muallifning qanday ijtimoiy, axloqiy takliflar bildirayotganini tushunishga kirishadi va she'rda ilgari surilgan fikrlarni real hayotdagi holatlar bilan taqqoslaydi. Shu tariqa o'quvchi o'z shaxsiy fikr-mulohazalarini shakllantiradi va yakuniy bosqichda mustaqil tafakkur hosil qiladi.

She'rda *"El qilur qasdi haloking begumon, topsalar gar lahza fursat, ey Avaz"* degan satr orqali muallif insonning muvaffaqiyatini ko'ra olmaydigan jamiyatdagi salbiy kuchlar mavjudligini, ammo ularga qarshi eng yaxshi qurol bu sabr, donishmandlik va ma'naviy sobitlik ekanini uqtiradi. Xuddi shu ruhda *"To jahonda bordur hosid, aylama, orzuvi izzu-muknat, ey Avaz"* misrasi orqali muallif dunyoviy manfaatlar, shon-shuhratga intilish emas, balki kamtarlik va sabr-bardosh orqali baraka topish mumkinligini e'tirof etadi. Ta'lim jarayonida ushbu kabi pandnoma asarlarni tahlil qilish orqali o'quvchilar nafaqat badiiy tafakkurni rivojlantiradi, balki axloqiy qarashlar, shaxsiy hayotiy pozitsiyasini shakllantirishda ham muhim tajribaga ega bo'ladi. Ayniqsa, "INSERT" texnologiyasidan foydalanish o'quvchini faqat matnni o'qishga emas, balki uni chuqur anglashga, tahlil qilishga, ichki munosabat bildirishga yo'naltiradi. Bu jarayonda she'r g'oyasini zamonaviy ijtimoiy muammolar bilan bog'lash, obrazlar orqasidagi ruhiy qatamlarni anglash, axloqiy fazilatlar haqida o'z hayotiy qarashlarini shakllantirish singari ko'nikmalar yuzaga keladi.

Xorazm adabiy muhitiga mansub bunday pand-nasihat ruhidagi she'riy namunalarni zamonaviy texnologiyalar asosida tahlil qilish bugungi adabiyot ta'limining maqsadlariga to'laqonli mos keladi. Bu nafaqat adabiy-estetik tarbiyani ta'minlaydi, balki o'quvchilarda milliy-ma'naviy ong, tarixiy xotira, axloqiy barqarorlik, shaxsiy iymon va vijdon tamoyillarini mustahkamlaydi.

Dialogik o'qitish. Dialogik o'qish – bu o'quvchi va matn o'rtasida yuzaga keladigan muloqot, shuningdek, o'quvchilar o'rtasidagi fikr almashinuvi orqali adabiy matnni chuqurroq anglashga xizmat qiladigan metoddir. Ushbu metod o'quvchilarni: "matn bilan suhbatlashish", "muallif pozitsiyasini anglash", "shaxsiy munosabat bildirish", "savol-javoblar orqali tahlil qilishga undaydi" [2: 107-b]. O'qituvchi tomonidan beriladigan ochiq, fikrlashga yo'naltirilgan savollar yordamida o'quvchi matn mazmuniga nisbatan shaxsiy munosabat bildiradi, muallif pozitsiyasini anglaydi, obrazlarni tushunadi va o'z hayoti bilan bog'liq holda baholaydi.

Avaz O'tarning "Fidoyi Xalqim" She'ning mazmunini markazida xalq uchun jon fido qilish, avlodlarga xizmat qilish, fidoyilikni hayot tarziga aylantirish g'oyasi yotadi. Quyida matn asosida amalga oshirilishi mumkin bo'lgan dialogik savol-javoblar, ularning ilmiy-psixologik maqsadi bilan keltiriladi:

"Fidoyi xalqim o'sun tanda jonim,

Bo'lub qurbon anga rubi ravonim".

Savol: Bu misralarda shoir qanday hayotiy pozitsiyani ifodalayapti?

Ilmiy tahlil: Lirik qahramon o'z xalqini jonidan aziz biladi, ruhini ham unga qurbon qilishga tayyor. Bu – cheksiz **fidoyilik**ning badiiy ifodasidir. Bu g'oya orqali o'quvchida insoniylik, sadoqat va sadoqatlilik tuyg'ulari shakllantiriladi.

"Gar o'lsam darbadar mazlumlardan uchun,

Budur maqsudi qalbi notavonim."

Savol: Shoir "mazlumlardan uchun o'lish"ni nega orzu qilmoqda?

Ilmiy tahlil: Bu misralarda shoir o'zining hayotiy missiyasini mazlumlarga xizmat qilish, ularning baxti yo'lida kurashishga qaratmoqda. "Qalbi notavon" ifodasi – lirik qahramonning dardga to'la, ammo umidvor qalbini anglatadi. Bu orqali o'quvchiga **ijtimoiy hamdardlik, empatiya** kabi axloqiy fazilatlar singdiriladi.

"Mani solsa fano yo'lga davron,

Yurur ustimdin avlodi zamonim".

Savol: Shoir bu yerda qanday tarixiy-madaniy ramzlar bilan ishlayapti?

Ilmiy tahlil: "Fano yo'lga solmoq" – bu o'lim, hayotdan ketish timsoli. "Avlodi zamon" esa kelajak avlod, maktab bolasi timsoli orqali shoir **abadiylik, meros qoldirish, xalq xotirasida yashash** g'oyasini ilgari suradi.

"Umidim: yashasin maktab bolasi,

Alar har biri bir sheri jayonim."

Savol: Nima uchun maktab bolasi shoir uchun umid timsoli sifatida berilgan?

Ilmiy tahlil: Bolalar – millatning kelajagi. Ularning har biri shoir nazarida "she'riy jayon" – ya'ni, ma'rifatli, jasoratli, xalqparvar farzand sifatida ko'riladi. Bu misralarda **pedagogik g'oya** – ta'limning jamiyat taraqqiyotidagi roli alohida e'tirof etiladi.

"Na yaxshi o'ylakim, ma'qul-u manzur,

Avaz, xalqim uchun to'kalsa qonim".

Savol: Shoir ushbu yakuniy misralar bilan qanday xulosa beradi?

Ilmiy tahlil: Bu – she'rning kulminatsiyasi. Shoir xalq uchun qonini to'kishni ma'qul va manzur deb biladi. Bu – **qahramonlik, milliy fidoyilik, vatanparvarlik**ning eng yuksak darajasidir.

Mazkur she'r orqali o'quvchilarda quyidagi kompetensiyalarni shakllantirish mumkin:

Milliy g'urur va vatanparvarlik tuyg'usi;

Badiiy-estetik tafakkur;

Matn bilan mustaqil ishlash ko'nikmalari;

Axloqiy-ruhiy tarbiya: sadoqat, sadoqatlilik, fidoyilik.

Shuningdek, dialogik o'qish metodi asosida o'quvchilar she'r mazmunidan kelib chiqqan holda esse yozish, sahna ko'rinishini tayyorlash, shoirga maktub yozish, o'z hayotiy pozitsiyasini ifodalovchi chiqish qilish kabi ijodiy topshiriqlarni bajara oladilar.

"Fidoyi xalqim..." she'rini dialogik o'qish metodi asosida o'rganish nafaqat badiiy matnni chuqur idrok qilishga, balki o'quvchilarning shaxsiy pozitsiyasini shakllantirishga, ijtimoiy hayotga faollik bilan munosabat bildirishga xizmat qiladi. Dialogik o'qish metodi bu borada o'quvchining matn bilan faol muloqotini tashkil etish, uning fikrini uyg'otish va milliy ongini yuksaltirish uchun samarali usuldur. Adabiyot darslari zamonaviy texnologiyalar bilan boyitilgan sayin, yosh avlod qalbiga xalqparvar

"Metodist" 2025-yil 3-son

shoirnlarning yurak nidosi yanada chuqurroq singib boradi. Demak, bu metod o'zining nazariy asoslari va amaliy imkoniyatlari bilan o'quvchilarni barkamol shaxs sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, Xorazm adabiy muhitining yorqin namoyandasi Avaz O'tar ijodi maktab Adabiyot darsliklarida o'ziga xos o'ringa ega. Shoir asarlaridagi badiiy yuksaklik, milliylik va ma'naviy yuksaklik o'quvchilarning tafakkuri va didini shakllantirishga xizmat qiladi. Shoir she'riyatidagi obrazlilik, ramziy ifoda vositalari, ruhiy-falsafiy izlanishlar yosh avlodda nafaqat badiiy didni, balki estetik-intellektual dunyoqarashni shakllantiradi, shu boisdan, Avaz O'tar ijodini ta'lim jarayoni o'qitish metodikasini ishlab chiqish va uni takomillashtirish dolzarb ilmiy-pedagogik vazifadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Jalilov K., Mirzayeva Z. Adabiyot: 6-sinf uchun darslik. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, 2022. – 224 b.
2. N. N. Azizxo'jayeva. "Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat". – T.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jam'armasi, 2006.
- 3.Qozoqboy Yo'ldosh, Muhayyo Yo'ldosh. "O'zbek adabiyotini o'qitish metodikasi". – Toshkent: G'ofur G'ulom, 2022.
4. <https://baxtiyor.uz>
- 5.kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/ibrohimi-haqqul-ishq-dard-va-isyon-shoiri-avaz-otar-saylanma.

"Metodist" 2025-yil 3-son

KO'NGIL SHE'RI ISTAGANDA...

AYTARIMNI DO'STLARIM ANGLAR...



Sirojiddin RAUF

O'zYU a'zosi, "Sharq yulduzi" jurnali bosh muharriri.
El. manzil: Sirojiddinrauf@icloud.com

Tarjimai hol

Bu manzil-makonda menda bir daraxt,
Poyida turfa yo'l, izlar tutashgan.
Kimdir shoxlarimni qayirib xursand,
Kimdir suv hovuchlab men tomon shoshgan!..

Qaysi kun baxt qushin raqsi samosi,
Qalbimni sarafroz ayladi behad –
O'shal on o'chirib ko'nglim safosin,
Beayov charx urdi tepamda kalxat.

Sabolar nafasini bo'ronlar to'sdi,
Tinimsiz quvgandek faslni fasl.
Ko'klam og'ushida men sekin o'sdim,
Qahraton qahridan sindim muttasil.

Sinov vodiysida ahdlar o'zgargan,
Xiyonat yetaklar tevalarini.
Iltijo qilaman, yovuz ko'zlardan
Asra deb, Xudoyim, mevalarimni.

"Metodist" 2025-yil 3-son

Men ilkis sezaman tanimda dardni,
Nafsim biroz qaltis havoladimi?!
Shu bilib-bilmasdan orttirgan gardni
Sharros yomg'irlarim yuvoladimi?!

Ajabmas, daryodek ayqirsa ko'lmak,
Bahorda sarg'arib, gullasam kuzda.
Yaxshimi, yomonmi – vojibdir ko'rmak,
Neki bitilgandir Lavhul-mahfuzda.

Hasad samumlari ufurdi qasddan,
Durkun kurtaklarim qoldilar sabil.
Yo'q, daryo mavjlarin havas qilmasman,
Bir yutum suving bas menga, Salsabil!..

Bugun – erta uchun berilgan badal,
Hisob-kitoblidir qazoi qadar.
Xazondek sovrilib ketajak amal,
Kibrning libosi – hasham, siymu zar...

Xayrli mujdalar zahmatin totdim,
Shukr, vujudimda titiroq va larza:
Ildiz-u barglarim bilan betinim,
Shovullab
Aytaman
Tasbeh
Har lahz!

"Dili qani Bedilning?.."
Aziz Said.

Dilim, vujudimning javhari dilim,
Zuvalam qorilgan paytda bormiding?
Seni tanib bildim, o, hayot so'lim,
Ruhimni iyardgan kuyga yormiding?

"Metodist" 2025-yil 3-son

Dilim, jannatga xol bo'lgulik dilim,
Behishtni zamindan tizladi Havvo,
Ishqning manziliga tutashib yo'lim,
Menda quvg'indiman, men – Odam Ato.

Dilim, ozurdayu ishqtalab dilim,
Zaminga el bo'lgan asl samoviy.
Ta'rifingdan tilim-tilimdir tilim,
Rivoyat to'qiydi yuz mingta roviy.

Dilim, azal-abad chirog'i dilim,
Partaving bomdodlar nuridan nurli.
Fanoda ishq yo'li beqiyos ilm,
Oshiqman, umrimning juz'i sururli!..

Bahorim

Jilg'aday qiqirlab kulib yurganding,
Chechakday yo'limda sochganding ifor.
Bugun arazlashni kimdan o'rganding,
Beminnat, hokisor, munisim bahor?

Bepoyon mehringdan bo'lib havoyi,
Qasddan xo'rlamadim men seni, ishon.
Yo'lga o'rganmagan otdak yovvoyi –
Yillar yelib o'tdi bekaram, beshon.

Bugun jilg'aga zor chechakman uvul,
Lutf etib Masihdek nafas qilmassan.
Armoning qaqshatar, hijroning – qattol,
Bilmaysan, bahorim, nahot bilmassan?!

Yurak dosh berolmas qishning qahriga,
Poyingga sadqadir jon ila borim.
Talonga shaylangan kuzak bag'rida,
Senga topinaman, senga, bahorim!

Bulbul nidosi

Oshiqman, duoi joningdadirman,
Beqaror, jonsarak yoningdadirman.
Lekin sen g'unchasan, ochilmaysan hech,
Iforlar taratib, sochilmaysan hech.

Balki men behuda o'rtanadirman,
Ayon et, men sendan o'rganadirman.
Karam qil, ko'zimning yoshini sizdir,
Axir, haqiqatni menga ham sezdir.

Noz-firoq etasan, shoshmaysan nechun,
La'li dudog'ingni ochmaysan nechun?
Ayta qol, bu bo'ston bo'lmasmi xazon,
Jilg'alar shu taxlit oqarmi ravon?
Sening go'zalliging abadiy nahot,
Mening xumorigim nahot umrbod?!

Men sendan olislab ketganim kundan,
Taqdirdir siylamoqdan o'zini tiydi.
Yillardek sudralib o'tdi lahzalar,
Ko'zlarim sog'inchdan liboslar kiydi.

Sahrodek qup-quruq qalbingga tinmay
G'ashlik urug'ini qadar sukunat.
Chorasiz o'ylarning qonini so'rib
So'ng achchiq mevalar tugadi hasrat.

Bir marg'ub maskanni tentirab izlar,
Yurakni tark etgan bechora shodlik.
Firoqning nazdida vujudim go'lah,
Bag'rimga o't qalar behadik.

Bu siniq ruhimni tiklamoq bo'lib,
Farishtam, takrorlab aziz nomingni,
Chillada bahorga ilhaq qush kabi
Qo'msayman ruhafzo oningni.

Intiqib turibman azmingga,
Besar gumonlarni haydayman.
Shu lahza balki men nazdingda
Nolasi noayon naydayman.

Vaqtning isrofiga berma yo'l,
Behuda o'tmasin daqiqam.
Tarahhum ko'rgaz va uzat qo'l,
Munisam, lablari aqiqam.

Ayovsiz muzlalar firoqlar,
Mahtalman nafasing-taftingga.
Javob ol, qiynasa so'roqlar,
Yurakni tashlayman kaftingga!..

So'roq

Baxtlimisan?
Dunyoda borsan,
Voh, borliging suvdagi izday.
O'z o'zingga tikilgan dorsan,
Yasholmaysan o'zingdan bezmay.

Baxtlimisan?
Yulqinadi kun,
Omonat oy va yana yillar.
Bo'larmikan bu vaqt bus-butun,
Bir mo'jiza kutasan yillab.

Baxtlimisan?
Nafs qurg'ur shullik,
Qalb qoniga qilmas qanoat.

Gar fe'lingga yot erur qullik,
Bebaqoda umring talofat.

Baxtlimisan?
Sadolar to'zg'ir,
Vujud ishqqa bo'lmadi maqom –
Firoq azob, zulmda o'zg'ir,
Intihosiz ajab intiqom.

Baxtlimisan?
To Mahshar qadar,
Mangu so'roq beradi jarang.
Mung'ayasan, yolg'iz darbadar,
Sim-simillar kemtik qovurg'ang!..

Lablaringda kuydi labim,
Yonib o'pding, yonib quchding.
So'ng temir qush qanotida
Xayolimni olib uchding...

Qalbm uchdi o'zing bilan,
Qoldi nolon jismu jonim.
Men zaminda, sen falakda...
Kuyar hayhot xonumonim.

Ayriqliqning oni uzun,
Hijronzada bo'ldi yurak.
Xo'rsinadi iyun shomi,
Sensiz tonglar nega kerak?

Sudralaman soya kabi,
Sinchkov boqar ana qo'shni –
(G'iybat bijg'ib yotgan uydin
Behroq derding bir qush ini...)

Huvillagan tor qafasni

Yurak qurg'ur tinmay mushtlar.
La'li labing ta'min istab
Bolsiraydi endi tushlar!..

Iqror

Sensizlikda noshud, aftoda, xorman,
Ko'zimdan nur ketdi, belimdan quvvat.
Hilviroq vujudga bo'larmi darmon
Surxon oftobida pishgan muhabbat?

Qarshi cho'llaridan keldim uloqib,
Tentidim Jarqo'rg'on ko'chalarida.
Izingni izladim Oy – chiroq yoqib,
Quyoshni boy bergan kechalarida.

Aslimga qaytaman senga erishsam,
Nekbinlik – ko'nglimning azal ulfati.
Afsus, hijronlarga tobora eshsan,
Ruhingni mahv etgan rashkning kulfati.

Kuyaman – farishta bo'lolmadim men,
Malomat toshidan dunyo qarigan.
Tanovul qildimu o'lolmadim men,
Zaqqum daraxtining mevalaridan.

Bir o'zim bilaman, Yaratgan guvoh,
Nimada quvonchim, nimada g'amim.
Irmoqlar suvidan ho'llanmas tomoq,
Tashna dil chashmasi o'zing, zamzamim.

Kelmishim umiddir, kechmishim – zavol,
Umrin bisotida orzumand o'y bor.
Saharga topinib turibman halol,
Tiyra xotiralar tizginin qo'yvor!..

Adolat

Almisoqdan beri o'tdi ne zamon,
Odam bolalari adolat deydi.
Mukarram bo'libdir qay zamon inson,
Ayting va ko'rsating dalolat deydi.

Bilganim, ming shukr, oxir payg'ambar
Dastur deb keltirgan muqaddas kitob –
ltoat aylasang, na dard, na g'am bor,
Yo'ldan adashmang deb yangragan xitob.

Alamki, rost-yolg'on qilgay ovora,
Iblis xurujidan charchagan olam.
Bulutdek yopirilib nafsi ammora,
Hayhot, bandalikdan tonadi odam.

Alhazar, o'zini xudodek sezib,
Haqsiz hukm sursa mustabid xonlar,
Zamin qabohatdan ketganda bezib,
Dunyoga keladi sohibqironlar.

Izlanib yuradi inson tobakay,
Boqmasmi, Yazdiyning buyuk xatiga.
Bir taboq oltinni tutib bolakay
Kezolg'an Temurning saltanatida.

Chiroq ko'targanni olqishlar jahon,
Mazlumlarni umidvor, zolimlar purg'am.
Ezgulik ko'shkida turgay begumon,
Hazrat Amir Temur adolati ham.

Rutubat ufurar, havo bulutli,
Qunishib quyoshdan so'rayman sochqi.
Izg'irin kunlari na epli, shudli,
Tunningda sochlari to'zg'in va sochiq...

Ne zamon, yulduzlar bermaydi nishon –
Sokin kengliklardan quvilgan nohaq.
Mo'ysafid boboga o'xshaydi osmon
O'jar jujuqlarning yo'liga ilhaq.

Rango-rang tus qayda? Yeru ko'k oppoq,
Ayoq bo'g'otlarda ko'rsatar tishin.
Sepalab o'tguvchi bulutlar mutloq
Yuvib udda qilmas qorning qilmishin.

Yashil izlariga zor etib takror,
Muncha muzlatmasa bahor – yosuman.
Qunishib maqsadga yetmaydi jondor,
Menda g'ijirlatib qadam bosaman!..

Sog'inch

Mo'jazgina mo'jiza kutib,
Birtus hayot o'tib boradi.
Erta go'yo notanish qutb –
Umrinni mazmunga qoradi.

Ko'k toqiga tirmashgan quyosh
Tillarang ip izlab qulaydi.
Subhidam ko'tarib tag'in bosh
Kunlarni kunlarga ulaydi.

Zo'rlangan kunlarga qaytmasman,
Chorlab turar bokira tonglar.
Eski qo'shiqlarni aytmasman,
Aytarimni do'stlarim anglar!

Haq sanalmas aslo haqorat,
Yolg'onga guldasta tutmaslar.
Erk haqida yangrar naqorat,
Madh etilmas oltin qafaslar.

Yechiladi oxir yuz yillik
Zo'r muammo – besh bo'lak chiston.
Barham topar ongdagi qullik,
Turkiston atalar Turkiston!

Yurmas unda ellar dildirab,
Mutelikka farosat tabib,
Dovrug' solgay yana gurkirab
Temurbekning lashkari kabi.

O'zligini anglagan avlod
Birdamlikdan topadi ma'ni.
Yelkani yelkaga qo'yib bot,
Ko'taradi qadim Vatanni!..

Mo'jiza, sog'indim ko'z tutib,
Yuragim hapriqib boradi.
Kutganim – u shunday bir qutb,
Umrinni mazmunga qoradi!

Bahor hislarimni bu gal ham turtar,
Tag'in yuragimda sog'inchlar bo'rtar.
Xushbo'y atirgunning tikani yanglig'
Shirin xotiralar dilimni o'rtar.

Ishqmi shu, bir laxcha cho'g'ni suydinar,
Yozdamas, qahraton qishda kuydirar.
Goh jonu jahonim ruhsiz tanimga
Jon berar, gohida jondan to'ydirar?

Oshiqqa ayondir do'zax azobi,
Jizg'anak olovday o'ngi ham, xobi.
Visolsiz ishq o'ti kunduz kuydirar,

Tunda yondiradi umid oftobi!

Kelsak – yarashadi muhabbat uchun,
Kulsak – yarashadi muhabbat uchun.
Ko'yida sarg'arib, laxta qon yutib,
O'lsak – yarashadi muhabbat uchun.

Ofiyat tilanib xilxonalardan,
Farqimiz qolmadi devonalardan.

Mumtozlik bobida Biru Bor tanho,
Voh, sherik yasadi bir donalardan.

Humoy deb sharaflab boyo'g'li zotin,
Haqiqat izladik afsonalardan.

Ma'shuqni madh etgan dostonlar qayda?
Yuz burdik bebaho durdonalardan.

Oxirat xabarini eshitmas mardum,
Quloqlar batangdir taronalardan.

O'tay deb oshiqar har dam xaloyiq
Tillodan quyilgan ostonalardan.

Ey, do'sti azizlar, Sirojiddinni
Topingiz vayrona mayxonalardan.

Bosh muharrir:

Qunduzxon Husanboyeva.
Pedagogika fanlari doktori, professor

Tahrir hay'ati:

- 1. Qodirov Valijon – pedagogika fanlari doktori, professor.*
- 2. Hamroyev G'ofir – pedagogika fanlari doktori, tadqiqotchi professor.*
- 3. Yusupov Qonisbay – pedagogika fanlari doktori, professor.*
- 4. Qambarova Saodat – pedagogika fanlari doktori, dotsent.*
- 5. To'ychiyeva Mahfuza – pedagogika bo'yicha falsafa doktori, dotsent.*
- 6. Hazratqulov Mutallib – pedagogika bo'yicha falsafa doktori, dotsent.*
- 7. Nurmuhammadov Jamaliddin – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori.*
- 8. Yusupjonova Nazokat – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori.*
- 9. Tuxliyeva Dilfuza – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori.*
- 10. Turdiboyev Dilshod – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent.*
- 11. Mahmudov Ravshan – falsafa fanlari nomzodi, professor.*
- 12. Abduraimov Shohruh – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent.*
- 13. Rasulov Namoz – Respublika Ta'lim markazi Filologiya bo'limi boshlig'i*
- 14. Valiyeva Mahmuda – Yunusobod tumani 274-maktab oliy toifali ona tili va adabiyot o'qituvchisi.*

**"METODIST" ILMIY-INNOVATSION, METODIK JURNALI BIR YILDA 6 MARTA
CHOP ETILADI.**

*Tahririyatga kelgan maqolalar Tahrir hay'atining tavsiyasiga binoan jurnalda e'lon
qilinadi. Nashr etilmagan maqolalar tahlil qilinmaydi.*

Jurnal direktori: Xolsaidov F.B.

Bichimi 60x90. "Cambria" garnituras. Ofset bosma usulida bosildi.
Shartli bosma tabog'i 5. Nashr bosma tabog'i 5.

Nashriyot rozligisiz chop etish taqiqlanadi.